

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O`ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

*Qo`lyozma huquqida*

*UDK*

BITIRUVCHI KURS MAGISTRANTI  
HAMROYEVA MAFTUNA RASULOVNAning

«MUSTAQILLIK DAVRI HIKOYALARIDA ANTROPONIMLAR»

mavzusidagi

*5A 120102 – Lingvistika (o`zbek tili) yo`nalishida magistr akademik  
darajasini olish uchun yozgan*

# MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

(2016-2017- o`quv yili)

Ilmiy rahbar

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

AHMEDOV A.R.

Buxoro – 2017

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
FILOLOGIYA FAKULTETI

O`ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

«Himoyaga ruxsat etilsin»

Fakultet dekani \_\_\_\_\_ A.A.Haydarov  
«\_\_\_\_\_»\_\_\_\_\_ 2017-y.

BITIRUVCHI KURS MAGISTRANTI  
HAMROYEVA MAFTUNA RASULOVNAning

«MUSTAQILLIK DAVRI HIKOYALARIDA ANTROPONIMLAR»

mavzusidagi

*5A 120102 – Lingvistika (o`zbek tili) yo`nalishida magistr akademik  
darajasini olish uchun yozgan*

# MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

(2016-2017- o`quv yili)

Ilmiy rahbar

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

AHMEDOV A.R.

Rasmiy hakamlar:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

QILICHEV B.E.

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

QURBONOVA G.N.

Buxoro – 2017

«Ma'qullayman»  
 Ilmiy rahbar: f.f.nomzodi,  
 dotsent A.R.Ahmedov  
 « » 2015-y.

BuxDU filologiya fakulteti bitiruvchisi **Hamroyeva Maftuna** «Mustaqillik davri hikoyalarida antroponimlar» mavzusidagi magistrlik dissretatsiyasi ustida olib borishi lozim bo`lgan ishlar yuzasidan

«Tasdiqlayman»  
 O`zbek tili va adabiyoti  
 kafedrasi mudiri Sh.N.Ahmedova  
 « » 2015-y.

### TOPSHIRIQLAR REJASI

Faoliyat nomi	Ishning qisqacha mazmuni	Bajarilish vaqtি	Bajarilgan ishlar haqida ilmiy rahbar xulosasi (imzo)	Magistrant (imzo)
Nazariy faoliyat	1. Mavzu bo`yicha zaruriy ilmiy, ilmiy-metodik materiallarni to`plash, o`rganish	2015-yil, sentabr		
	2. Ilmiy adabiyotlarini mavzu nuqtayi nazaridan o`rganish	2015-yil, oktabr-dekabr		
	3. Mavzu bo`yicha ilmiy manbalarni taqqoslash. Adabiyotlar ustida ishslash. To`plangan materiallarni sistemalashtirish	2016-yil, yanvar		
MD ustida ishslash	1. MD rejasini tuzish. Tadqiqotning kirish qismini tayyorlash	2016-yil, fevral-mart		
	2. I bob paragraflari ustida ishslash (yig`ilgan nazariy ma'lumotlarni ishga kiritish)	2016-yil, aprel-iyul		
	3. II bob paragraflari ustida ishslash (nazariy ma'lumotlar asosida ishning amaliy qismini shakllantirish )	2016-yil, avgust-noyabr		
	4. III bob paragraflari ustida ishslash (nazariy ma'lumotlar asosida ishning amaliy qismini shakllantirish )	2016-yil, dekabr-2017-yil, fevral		
	5. Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko`chirish	2017-yil, mart		
	6. Xulosa (tahlillar natijasida umumlashmalar va xulosalarni yoritish)	2017-yil, aprel		
	7. Adabiyotlar ro`yxatini tartibga solish			
MDni rasmiy-lashtirish	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish	2017-yil, may		
	MDni himoya qilish	2017-yil, iyun		

Bitiruvchi kurs magistranti

Maftuna Hamroyeva

Ilmiy rahbar

Atouollo Ahmedov

**Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti**  
**o`zbek tili va adabiyoti kafedrasining -yig`ilishi bayonnomasidan**  
**KO`CHIRMA**

\_\_\_\_\_ , 2015-y.

**Qatnashdi: kafedraning barcha  
a`zolari**

**K U N T A R T I B I**

*Magistrlik dissertatsiyalari mavzularining muhokamasi, tasdig`i hamda  
ilmiy rahbarlarni tayinlash.*

**Kafedra qaror qiladi:**

5A 120102 – Lingvistika (o`zbek tili) yo`nalishi magistranti Hamroyeva Maftunaning «Mustaqillik davri hikoyalarida antroponimlar» shaklida tasdiqlansin.

5A 120102 – Lingvistika (o`zbek tili) yo`nalishi magistranti Hamroyeva Maftunaning magistrlik dissertatsiyasiga f.f.nomzodi, dotsent Atoulloh Ahmedov ilmiy rahbar etib tayinlansin.

**Yig`ilish raisi**

**Sh.N.Ahmedova**

**Yig`ilish kotibasi**

**G.Y.Samandarovna**

**Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti**  
**o`zbek tilshunosligi kafedrasining 6-yig`ilishi bayonnomasidan**  
**KO`CHIRMA**

-may, 2016-y.

**Qatnashdi: kafedraning barcha  
a`zolari**

**K U N T A R T I B I**

**5A 120102 – Lingvistika (o`zbek tili) yo`nalishi magistranti Hamroyeva  
Maftunaning «Mustaqillik davri hikoyalarida antroponimlar » mavzusidagi  
magistrlik dissertatsiyasi muhokamasi**

**Kafedra qaror qiladi:**

5A 120102 – Lingvistika (o`zbek tili) yo`nalishi magistranti Hamroyeva  
Maftunaning «Mustaqillik davri hikoyalarida antroponimlar» mavzusidagi  
magistrlik dissertatsiyasi «sinov himoyasidan o`tdi» deb hisoblansin va rasmiy  
himoyaga tavsiya etilsin.

Mazkur magistrlik dissertatsiyasiga ichki taqrizchi etib kafedra dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi B.E.Qilichev hamda tashqi taqrizchi etib Buxoro  
tibbiyot instituti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi G.N.Qurbanova tayinlansin.

**Yig`ilish raisi**

**A.R.Ahmedov**

**Yig`ilish kotibasi**

**N.G`aybullayeva**

**5A 120102 – Lingvistika (o`zbek tili) yo`nalishi magistranti Maftuna Hamroyevaning «Mustaqillik davri hikoyalarda antroponimlar» mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi**

**ANNOTATSIYASI**

Mustaqillik davri ijodkorlari hikoyalari, umuman ijodi, leksik jihatdan boy bo`lib, unda hozirgi paytda faol qo`llanilgan so`zlar bilan bir qatorda, tarixiy qatlamga xos bo`lgan lug`aviy birliklar ham uchraydi. Ana shunday qatlamlardan biri bu kishi ismlaridagi antroponimlar. Ularda xalq ijodi, tafakkuri, ong-shuurining izlari saqlanib qolganligi ko`rinadi.

Hikoyalardagi antroponimlarda tasvirlanayotgan davr, zamon tarixi, holati mujassamlashtirilgan, ular nafaqat nominativ, balki uslubiy vazifani ham bajargan.

Badiiy asar tilidagi antroponimlar tadqiq qilish bir tomondan tilshunoslikning antroponimika sohasi uchun ahamiyatli bo`lsa, ikkinchi tomondan tilshunoslikdagi eng dolzarb masalalaridan biri – badiiy asar tili va yozuvchi uslubi muammosiga ma`lum bir aniqliklar kiritishi bilan ahamiyatlidir.

Istiqlol davri hikoyalari matnidagi antroponimlarning ma`no va mazmuni, hamda uslubiy xususiyatlarni yanada chuqur va keng ko`lamda o`rganish muhim vazifalarimizdan biridir.

Ko`rib o`tganimizdek til juda serqirra hodisa. Shuning uchun ham tilni xalq hayoti bilan bog`liqlikda o`rganish lozim. Buning uchun bizga birinchi navbatda badiiy asarlar yordam beradi. Badiiy asardagi onomastik birliklar, xususan, antoponimlar ham mana shu millat, xalq hayoti va o`tmishidan olingan, unda o`z aksini topadi. Xuddi shuning uchun ularni o`rganish va tadqiq qilish muhimdir. Bu orqali biz o`z milliyligimiz, tariximizni bilish va anglashda yana bir qadam oldinga siljiymiz. Men o`ylaymanki, istiqlol davri ijodkorlarining o`lmas merosi bizga ana shu bir qadam oldinga harakat uchun juda kata yordam berdi.

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi BuxDU o`zbek tili va adabiyoti kafedrasи yig`ilishida tasdiqlangan. Ish natijalari universitet doimiy ilmiy-amaliy anjumani, respublika, universitet ilmiy to`plamlarida e`lon qilingan.

Ish kirish, uch asosiy bob, sakkizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

**Ilmiy rahbar**  
**Magistr**

**Ahmedov A.R.**  
**Hamroyeva M.R.**

## **THE ANNOTATION OF MASTER'S DISSERTATION**

In the author's stories of period of Independence, in general their works are very rich with lexical, which are currently being actively used, as well as historical layers are also used in specific lexical units. One of these layers is anthrponim which is used in the names of the people. They are thinking, creativity, consciousness seems to be preserved traces of mind.

Anthroponims of the story, including the history of the time, period, as described in the state the only nominate, but also functions as a methodological.

To study anthroponims in the language of works of art, on the one hand, the importance of anthroponims field of linguistics, on the other hand one of the most pressing issues of linguistics literary work of problem of language and style of the author of the sacred explanation is remarkable.

The stories of the independence period anthroponim's meaning and text content, as well as methodological features more in depth and extensive study of one of the most important tasks.

We saw that the language is so multifaceted event. Therefore, we must learn the language in connection with the life of people. That's for works of art help us firstly. Onomastic units, in works of art, particularly, anthroponims are taken from the life of people of this nation and from the past which is reflected in itself. Similarly it is important for them to learn and study. Through this we move one step in realizing progress our nationality and history.

I think, creative immortal legacy of the period of independence, this is a step forward for us is a big help.

Subject of the master's thesis at Bukhara State University approved by the meeting of the uzbek language and literature department. The results of the work of the University permanent scientific and practical conference, the university published in scientific collections. The work consists of introduction, three main parts, eight paragraphs, conclusion, and the list of used literature.

**BuxDU filologiya fakulteti 5A 120102 – Lingvistika (o`zbek tili) yo`nalishi magistranti  
Hamroyeva Maftunaning «Mustaqillik davri hikoyalarida antroponimlar» mavzusidagi  
magistr akademik darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi haqida ilmiy rahbar**

**XULOSASI**

Bugungi kunda ta’limning barcha sohalari ulkan o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. M.Hamroyevaning ushbu magistrlik dissertatsiyasida tilshunoslikning onomastika sohasi birligi bo‘lmish antroponimlar va ularning badiiy asar tilida, yozuvchi uslubida tutgan o‘rni, mustaqillik davridagi qo‘llanilish ahamiyati hikoyalar asnosida tahlilga tortilgan. Ta`kidlash lozimki, bunday tahlil uslubi muallifdan tilshunoslik asoslarini, ularning bugungi kun uchun qay darajada dolzarbligini anglagan holda yetarlicha bilimga ega bo‘lishni talab qiladi. XX asr 2-yarmi o‘zbek tilshunosligida yuzaga kelgan “Onomastika” fani hozirda ancha yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Ammo hali amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar o‘z yechimini kutib turibdi. M.Hamroyevaning mazkur ishini ana shu yo‘nalishdagi ishlarning biri sifatida baholash mumkin.

Dissertant: “O‘zbek hikoyachiligidagi antroponimlarning o‘rni qanday?”, “Badiiy asarda antoponimik birliklardan foydalanishning ahamiyati nimada?”, “Istiqlol davri hikoyalarida antropoindikatorlarning qo‘llanilishi qay darajada?” kabi savollarga javob topish davomida mavzu yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borganligi ahamiyatli, deb o‘layman.

Umuman olganda, M.Hamroyevaning «Mustaqillik davri hikoyalarida antroponimlar» mavzusidagi magistrlik akademik darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi shunday ishlar oldiga qo‘yilgan talablarga to`la javob beradi, uni ommaviy himoyaga tavsiya etaman.

**Ilmiy rahbar**

**Axmedov A.R.**

**o‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.n.**

**27-may, 2017-yil.**

**BuxDU filologiya fakulteti 5A 120102 – Lingvistika (o`zbek tili) yo`nalishi  
magistranti Hamroyeva Maftunaning «Mustaqillik davri hikoyalarida  
antroponimlar» mavzusidagi magistr akademik darajasini olish uchun yozgan  
dissertatsiyasiga (tashqi) rasmiy hakam**

**TAQRIZI**

XX asrning oxirgi o`n yilligidan boshlab, ya`ni milliy istiqlol davrida tilshunoslik sohasining bir qator yosh sohalarining shakllanishini yoxud rivojlanishini kuzatishimiz mumkin. Mana shunday rivojlangan sohalardan biri bo`lmish onomastika ham o`z tadqiqotchilari tomonidan yildan yil boyib bormoqda. Ayniqsa, onomastikaning kishi nomlari ilmiy jihatdan o`z nazariyasiga ega, ularning badiiy asar orqali jamiyat hayoti bilan chambarchas bog`lanishidan kelib chiqib o`rganilishi esa ayni damda juda muhim hisoblanadi. O`zbek nomshunosligida atoqli otlarni tadqiq qilish barcha ilmiy yo`nalishlar bo`yicha bir xil darajada olib borilmayotgani, o`zbek tarixiy onomastikasi, badiiy asarlar onomastikasi, folklor onomastikasi, tarixiy obida, inshootlarning atoqli otlari, tarixiy va ilmiy asarlar atoqli otlari deyarli tadqiq qilinayotgan emas.

O`zbek nomshunosligida shu kunga qadar yozilgan ishlarning deyarli barchasida nomlarning ma`no va grammatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Lekin bu kuzatishlar atoqli otlarning amaliy muammolari bilan bog`lanmaydi. Ayniqsa, kishi nomlarining yozilishi, imlosi, uslubiy qo`llanishi haqida yetarli fikr bildirilmagan.

Mustaqillik, milliy istiqlol bilan bog`liq yangi-yangi nomlar paydo bo`lmoqdaki, ularni izchil va yaxlit bir tizim sifatida o`rganish bugungi tilshunoslik fani uchun zarur bo`lgan muammolardan biridir.

O`zbek tilshunosligida antroponimlar bo`yicha bir qator ilmiy ishlar qilinganiga qaramay, bu sohada yechilmagan masalalar hma bor. Jumladan, mustaqillik davri o`zbek adabiyotida o`z o`rniga ega bo`lgan ijodkorlarning hikoyalarida asarlari matnida uchrovchi onomastik birliklarini o`rganish shular jumlasidandir. Bu borada Mustaqillik davri hikoyalarida qo`llanilgan antroponimlarining leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini o`rganish bugungi kun tilshunoslaring vazifasidir.

Magistrlik dissertatsiyasining "Onomastika – tilshunoslikning tarmog`i" deb nomlangan birinchi bobu uch fasldan iborat. Unda onomastika sohasining rivojlanishi va onomastik birliklarning tilda tutgan o`rni, o`zbek tilshunosligida onomastik birlik sifatida o`rganiluvchi antroponimyaning o`rganilishi darjasini hamda ulardan badiiy asarda foydalanishning ahamiyati haqida atroficha fikr-

mulohazalarini bayon etilgan. Onomastik birliklarning til lug‘at tizimida o‘ziga xos xususiyat va mavqega egaligi, ularni badiiy asar matni bilan bog‘lab tahlil va tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etishi, shundan kelib chiqqan holda mustaqillik davri hikoyanavislari hikoyalardagi antroponimlarning semantik-stistik xususiyatlarni va antroponimik shakllarni ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganilishi muhim degan xulosaga kelingan.

Ikkinchi bob "O‘zbek hikoyachiligidagi antroponimlarning o‘rni" deb nomlangan bo`lib, uch fasldan tarkib topgan. Unda hikoyanavis adiblar: Tohir Malik, Normurod Norqobilov, Shukur Xolmirzayevlarning antroponimlardan foydalanish mahorati ularning hikoyalari asosida tahlil qilingan, shu asnoda antroponimlarning badiiy asarda va til sistemasida tutgan o‘rni, mustaqillik davridagi ahvoli ochib berilgan. Bunda muallif badiiy asardan yetarlicha va to`g`ri misollarni isbot tariqasida ishda ko`rsatib o`tgan.

“Istiqlol davri hikoyalarida antropoindikatorlarning qo‘llanilishi, tilshunoslikda antropoindikator tushunchasi va uning badiiy asardagi o‘rni, mustaqillik davri hikoyanavislarning antropoindikatorlarndan foydalanishi borasidagi fikrmulohazalar va misollar ishning uchinchi bobida yoritilgan.

Har bir bob alohida xulosalanganki, bu ishning qiymatini oshirishga xizmat qila olgan.

5A 120102 – Lingvistika (o‘zbek tili) yo`nalishi magistranti «Mustaqillik davri hikoyalarida antroponimlar» mavzusidagi magistr akadem darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasida ayni shu muammolar tahlilga tortilganki, bu tanlangan mavzuning dolzarbligidan dalolatdir.

Hamroyeva Maftunaning magistrlik akademik darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi shunday ishlar oldiga qo`yilgan talablar to`la javob beradi, uni ijobjiy baholash mumkin

**Rasmiy hakam**

**G.N.Qurbanova,**

**Buxoro tibbiyot instituti dotsenti,**

**pedagogika fanlari nomzodi**

***Fakultet ilmiy kengashning 2017- yil 24- may  
bayonnomasi bilan tasdiqlangan***

BuxDU filologiya fakulteti 5A 120102 – Lingvistika (o`zbek tili) yo`nalishi magistranti Hamroyeva Maftunaning «Mustaqillik davri hikoyalarida antroponimlar» mavzusidagi magistrlik ishiga DAK

**XULOSASI**

Nº	<b>Belgilangan me`yorlar</b>			
1	MDning hajm va talab bo`yicha rasmiylashtirilganligi (me`yor: 70 betdan kam bo`lmasligi kerak)	talabga javob beradi–10 ball	talabga qisman javob beradi–7 ball	talabdan chetga chiqish holatlari mavjud–4 ball
2	Mavzuning davlat va universitet grant dasturlari asosida yoki dolzarb muammolar bo`yicha tanlanganligi	davlat dasturiga kirgan–8 ball	grant loyihasi bo`yicha – 7 ball	BuxDU dasturi bo`yicha–6 ball yoki dolzarb muammolar bo`yicha–5 ball
3	Mavzu dolzarbligining asoslanganligi	yetarli darajada asoslangan–5b.	yetarli asoslan-magan–3b.	noaniq -2 ball
4	Maqsad va vazifalarning aniq ifodalanganligi	aniq - 7 ball	to`liq aniq emas – 5 ball	aniq emas – 3 ball
5	MDda ilmiy tekshirish metodlaridan foydalanganlik darjasи	to`la– 7 ball	qisman – 5 ball	yetarli emas-3 ball
6	Olingan natijalarning yangiligi va ishonchlilik darjasи	natija yangi – 8 ball	ilgari olingan – 6 ball	to`la ishonchli emas–3 ball
7	MDning xulosa qismida tavsiyalar berilganligi:, ijtimoiy sohada qo`llashga (ta’lim, atrof-muhitni himoya qilish, ma’naviy-ma’rifiy...)	bevosita ishlab chiqishga tavsiyasi bor -6 ball	tavsiya qilingan-5 ball	tavsiya yo`q– 3 ball
8	Bitiruvchining mavzu bo`yicha olingan natijalarini tanqidiy baholanganligi darjasи	aniq-8 ball	to`la aniq emas – 6 ball	tanqidiy baholanmagan-4 ball

9	Ishning ilmiy xarakteri	ilmiy tadqiqotlar asosida - 8 ball	aralash shaklidan - 5 ball	referaktiv xarakterdan - 3 ball
10	Adabiyotlardan foydalanganlik darajasi	ilmiy-amaliy jurnallar, monografiya, yetakchi olimlar asarlaridan to`la foydalanilgan - 8 ball	ilmiy adabiyotlar kam foydalanilgan – 6 ball	faqat darslik, ma`ruza matnlari, o`quv qo`llanma va ma'lumotnomalar dangina foydalanilgan - 4 ball
11	Bitiruvchi taqdimotiga baho	a`lo – 10 ball	yaxshi – 7 ball	qoniqarli – 6 ball
12	Berilgan savollarga javobi	to`liq – 8 ball	o`rta – 6 ball	qoniqarli- 4 ball
13	MDning ichki va tashqi taqrizchi tomonidan baholanishi	a`lo – 7 ball	yaxshi – 6 ball	qoniqarli – 5 ball
14	MDga qo`yilgan yakuniy ball:	Bahosi:		

*Eslatma:* Har bir me'yor bo`yicha aniqlangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

**DAK raisi: prof. Shermatov A.**

**A'zolari: 1. dots.Haydarov A.A. (rais muovini)**

**2. dots.Ahmedov A.R. (a'zo)**

**3. dots.Qilichev B.E. (a'zo)**

**4. dots.Yo`ldosheva D.N. (a'zo)**

**-iyun, 2017-y.**

## **Mavzu: Mustaqillik davri hikoyalarida antroponimlar.**

Reja:

Kirish. Ishning umumiy tavsifi.

I bob. Onomastika – tilshunoslikning tarmog‘i.

I.1. Onomastika va onomastik birliklar.

I.2. O‘zbek tilshunosligida antroponimiya sohasining o‘rganilishi.

I.3. Badiiy asarda antoponimik birliklardan foydalanishning ahamiyati.

II bob. O‘zbek hikoyachiligidagi antroponimlarning o‘rni.

II.1. Tohir Malikning antroponimlardan foydalanish mahorati.

II.2. Normurod Norqobilov hikoyalarida antroponimlarning qo‘llanilishi.

II.3. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida antroponimik shakllar.

III bob. Istiqlol davri hikoyalarida antropoindikatorlarning qo‘llanilishi.

III.1. Tilshunoslikda antropoindikator tushunchasi va badiiy asardagi o‘rni.

III.2. Mustaqillik davri hikoyanavislari ijodida antropoindikatorlar.

Xulosa.

## Kirish. Ishning umumiyl tavsifi.

**Mavzuning dolzarbliyi.** Har qanday makon va zamonda ham ijodkor asar yartishda milliylikni yo‘qotmagan holda mas’ulyat bilan yondashmog‘i lozim deb o‘ylaymiz. Hozirgi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamonaviy hayotimizda ijod qilayotgan ijodkorlarning bu sohaga munosabatlari shuning uchun ham e’tiborimizni tortdi.

O‘zbek nomshunosligida atoqli otlarni tadqiq qilish barcha ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha bir xil darajada olib borilayotgani yo‘q. O‘zbek tarixiy onomastikasi, badiiy asarlar onomastikasi, folklor onomastikasi, tarixiy obida, inshootlarning atoqli otlari, tarixiy va ilmiy asarlar atoqli otlari deyarli tadqiq qilingan emas. Ayniqsa, onomastik etimologiya eng qoloq yo‘nalishlardan biridir. O‘zbek tili atoqli otlarga boy bo‘lib, ularning barcha ko‘rinishlari bir xilda to‘plangan va o‘rganilgan emas.

O‘zbek tilidagi tarixiy nomlarning materiallarning nomshunoslikka oid lug‘atchilikning (onomastik leksikografiya) ilmiy prinsiplari ishlab chiqilgan emas. O‘zbek tilidagi tarixiy nomlarning materiallari shu kunga qadar deyarli tadqiq qilingan emas.

O‘zbek nomshunosligida shu kunga qadar yozilgan ishlarning deyarli barchasida nomlarning ma’no va grammatic xususiyatlari tahlil qilinadi. Lekin bu kuzatishlar atoqli ularning amaliy muammolari bilan bog‘lanmaydi. Ayniqsa, kishi nomlarining yozilishi, imlosi, uslubiy qo‘llanishi haqida yetarli fikr bildirilmagan.

Mustaqillik, milliy istiqlol bilan bog‘liq yangi-yangi nomlar paydo bo‘lmoqdaki, ularni izchil va yaxlit bir tizim sifatida o‘rganish bugungi tilshunoslikfani uchun zarur bo‘lgan muammolardan biridir.

O‘zbek tilshunosligida antroponimlar bo‘yicha bir qator ilmiy ishlar qilinganiga qaramay, bu sohada yechilmagan masalalar talaygina. Jumladan, mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ijodkorlarning hikoyalarida asarlari matnida uchrovchi onomastik birliklarini o‘rganish shular jumlasidandir. Bu borada Mustaqillik davri hikoyalarida qo‘llanilgan

antroponimlarining leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini tadqiq qilish ishning dolzarbligini ko'rsatadi.

**Mavzuning o'r ganilish darajasi.** Hozirgi o'zbek tilidagi atoqli otlar ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'r ganilmoqda. Nomlar nazariy, tavsifiy, qiyosiy, tarixiy va sinxron yo'nalishda tadqiq qilinmoqda. O'zbek nomshunosligi ilmiy soha sifatida o'ziga xos ba'zi tekshirish usullari, tamoyillariga egaligi E.Begmatov, N.Uluqov "O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati" kitobida berib o'tilgan. Y.Menajiyev, X. Azamatov, D.Abdurahmonov, E.Begmatovlarning "Ismingizning ma'nosi nima?" kitobida tilimizdagи tushunilishi qiyin bo'lgan nomlarning ismlik va turdosh otlik ma'nolarini tushuntirib bergenlar. Asarning so'zboshi qismida kishi nomlarining kelib chiqishi, nom qo'yish odatlari va usullari haqida aytib o'tilgan [32].

E. Begmatovning "Nomlar va odamlar" kitobida ism qo'yish odatlari, ismlarning tarixiy etnografik ma'nolari tushuntiriladi. Shuningdek, hozirgi zamon o'zbek tilida keng qo'llanilayotgan ismlar ro'yxati berilgan. Ushbu kitob ilmiy-ommabop tarzda yozilgan bo'lib, "Ismlar va tilsimlar", "Hurmat va zulmat", "Qizlar qismati", "Davrimiz va ismimiz" kabi bo'limlarni o'z ichiga oladi. Har bir bo'limdagi nomlaar boshqa turkiy xalqlardagi nomlari bilan chog'ishtirilgan. Ular haqidagi ba'zi latifalar ham keltirilgan [14].

Tilshunos N.Mirzayev «O'zbek zooantropomlari nomli maqolasida» qadimgi turkiy xalqlar ba'zi yirtqich va uy hayvonlari haqida turli xil totem tasavvurga ega bo'lgani bayon etilgan. Bo'riga bo'lgan ishonch esa totem tasavvuriga bog'liq ot bo'lib, uning asosiy qismi o'zbeklarning turli gruppalarida bolaning tug'ilishi, uning hayotini saqlab qolish bilan bog'langan. Bo'ri, Bo'riboy, Boybo'ri, Bo'ritosh, Bo'rigul, Bo'rixol kabi ismlar yirtqich hayvonlarga e'tiqod tufayli patdo bo'lganini yozib, keying davrlarda bunday atoqli otlarning ishlatilish doirasi ancha kengayganligini aytib o'tadi [33].

Tilshunos E.Qilichev tadqiqotlarida antroponimlarning stilistik qo'llanilishi haqida fikr yuritiladi. U yozuvchi S. Ayniy asarlarida qo'llanilgan antroponimlar haqida quyidagilarni yozadi: «S.Ayniy asarlari strukturasidagi antroponimlar

tasvirlanayotgan voqea mazmuniga mos holda uni badiiy aks ettirish uchun xizmat qilgan» [39].

1960-yillardan keying davrlarda o‘zbek tilidagi atoqli otlar tizimini zamonaviy tilshunoslik usullarida tadqiq qilish ayniqsa kuchaydi. Jumladan, joy nomlari, kishi nomlari va boshqa sohalar bo‘yicha anchagina ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar yozildi [40].

O‘zbek tilidagi antroponimlarning mavjud tiplari ularning hajmi va chegarasi hozirga qadar belgilangan emas. Professor E. Begmatov aytganidek: «Atoqli otlarni har tomonlama o‘rganish o‘z tadqiqotlarini kutmoqda” [19].

Anroponimlar masalasi rus tilshunosligida ancha keng va har tomonlama o‘rganilgan. Bu sohada A.V.Speranskaya, S.I.Zinin, A.A.Reformatskiy, A.Sokolov, T.Tropin, L.Uspenskiy, V.K.Nikonov kabilar yirik monografik ishlar yozganlar [50].

**Mavzuning maqsad va vazifalari.** Mustaqillik davri hikoyalari matnidagi antroponimlarni aniqlash, ularni klassifikatsiya qilish va semantik-stilistik xususiyatlarini bayon qilish. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

1. Ijodkorlar hikoyalaridagi antroponimlar ma’lum ma’noda yig‘ildi va tahlilga tortildi.
2. Ba’zi hikoyanavis adiblarning nom tanlashdagi o‘ziga xosligi ochib berildi.
3. Hikoyalardagi antroponimlarning etimologiyasi imkon darajasida yoritildi.
4. Ijodkorlar uslubida uchrovchi antropoindikatorlar aniqlandi.
5. Antropoindikatorlarning asardagi tutgan o‘rni va uslubiy bo‘yoqdorligi tahlil qilindi.
6. Antroponimlar va antropoindikatorlarning o‘zaro munosabati tahlil qilindi.

**Ilmiy ishning yangiligi.** Ushbu magistrlik dissertatsiyasida mustaqillik davri hikoyalaridagi antroponimlar ma’lum ma’noda yig‘ildi, tahlil qilindi va ularning asardagi ahamiyati o‘rganildi.

**Ilmiy ishning amaliy ahamiyati.** Hozirgi til imkoniyatlarini har tomonlama o‘rganish dolzarb bo‘layotgan davrda, diqqatga havola etilatotgan ushbu magistrlik

dissertatsiyasi katta amaliy va nazariy ahamiyat kasb etishi tabiiy. Undagi tahlil va tadqiqotlar natijasi bo‘lgan fikr mulohazalardan oliy o‘quv yurtlarining tilshunoslik, nazariy grammatika darslarida ya’ni lingvistika yo‘nalishi bo‘yicha ma’ruzalar va maxsus kurslarda foydalanish mumkin.

**Mavzuning manbayi.** Shukur Xolmirzayev. Saylanma 1-,2-,3-jild. Saylanma. («Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri. Toshkent-2005. To‘plab, nashrga tayyorlovchi, ilova va izohlar muallifi Sayora Xolmirzayeva filologiya fanlarinmzodi, dotsent ). Tohir Malik. “Padarkush”. Qissa va hikoyalar to‘plami. (“Davr press” NMU. Toshkent-2014) . Normurod Norqobilov. Bo`ron qo`pgan kun. Qissa va hikoyalar. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri. Toshkent-2007.

**Ishning metodologik asosi va tadqiq usullari.** Ishning metodologik asosini O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov asarlari, O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risidagi qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», fan va texnikani rivojlantirishga doir me’yoriy hujjatlar tashkil qiladi. Ishda sinxron, tavsifiy, semantik-stilistik usullardan foydalaniladi.

**Ishning joriylanishi.** Magistrlik dissertatsiya mavzusi o‘zbek filologiyasi kafedrasи yig‘ilishida tasdiqlangan. Mavzuning o‘rganilishi yuzasidan yig‘inlarda ma’ruzalar qilingan va maqola hamda tezislar e’lon qilingan.

**Ilmiy ishning tuzulishi.** Magistrlik dissertatsiyasi kirish, 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan.

## **I.bob.Onomastika - tilshunoslikning tarmog'i.**

### **I.1. Onomastika va onomastik birliklar.**

Badiiy asar tilini o‘rganish muhim masalalardan biri bo‘lib, u shoir yoki yozuvchining o‘ziga xos badiiy vositalarini aniqlashda va undan samarali foydalanishga yordam beradi.

Lekin, shunday bo‘lishiga qaramay, tanqidchilar yoki o‘qituvchilar biror bir asarni tahlil qilar ekanlar, asardagi qahramonlarni salbiy yoki ijobiy obrazlarga bo‘lib, ularning har birini xarakterlash bilan cheklanadilar, asarning tili, bu tilning mazmunga munosabati, voqeа-hodisalarini tasvirlashda qanday badiiy til vositalardan foydalanish, yozuvchining bu sohadagi yutuq va kamchiliklari e’tibordan chetda qoladi.

Har bir yozuvchi, shoirning o‘ziga xos yo‘li, badiiy uslublari, tili bo‘ladiki, u umumxalq tili qonuniyatlarga bo‘ysunadi, unga asoslanadi. Har bir yozuvchi, shoir umumxalq tilidagi ifodalash vositalaridan o‘zicha foydalanadi. Turgenev umumxalq tilini dengizga o‘xshatib, shunday deb yozgan edi: «U (ya’ni dengiz) cheksiz va tubsiz to‘lqinlari bilan oshib-toshib yotadi; biz yozuvchilarning vazifasi –shu to‘lqinlarning ma’lum qismini o‘z tomonimizga, o‘z tegirmonimizga burishdir». Yozuvchi umumxalq tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, adabiy tilni boyitadi, mukammallashtiradi. Yozuvchining bu imkoniyatlardan qanday foydalanganligini o‘rganish asosiy vazifalardan biridir.

Avvalo, har qanday asar tilini o‘rganish va u haqida hukm chiqarish uchun yozuvchining yashagan davri, tarixiy sharoiti, asarning yozilish jarayoni, yozilish soatlari va yozuvchining shu asar orqali ifodalamoqchi bo‘lgan maqsadini chuqr o‘rganish lozim. Chunki ijtimoiy borliq yozuvchining ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, bu hodisa o‘z navbatida asarda o‘z aksini topadi.

Badiiy asarning tilini tekshirish shakl va ma’no munosabatini o‘rganish demakdir. Asar g‘oyasining muhimligi va undagi qahramonlarning ko‘p qirra bo‘lishi asar tilining boyishiga va mukammallahuviga imkon beradi. Zukko yozuvchi asar qahramonlarining tilini tipiklashtiradi: asarning har bir qahramoni o‘z xulq-atvori, muayyan davr muhiti va dunyoqarashiga mos tilda so‘zlashadi,

yozuvchi ma'lum voqealarni tasvirlaganda bir xil vositalardan foydalansa, boshqa hodisalarini tasvirlashda o'zgacha til vositarini qo'llaydi. Shuning uchun ham asar qahramoni tilining tipiklashuvi, alohidalashuvi adabiy asar tilining xarakterli belgilaridan biridir. Yozuvchi nima sababdan biror voqea-hodisani, qahramon xattiharakatini aks ettirishda biron so'z, ibora va uslubiy vositadan foydalanish sababini o'rganish asar tilini tekshirishning yana bir tomonidir.

Odatda, har bir adibdan adabiy tilda yozish talab etiladi. Bunda jonli xalq tilidan adabiy tilni farqlash zarurligi ko'zda tutiladi. Bundan adabiy til boshqa-yu, xalq tili boshqa ekan-da, degan xulosa kelib chiqmaydi, albatta. Adabiy til jonli xalq tiliga asoslangan, bir yoki ikki yetakchi sheva zaminida shakllangan tildir. Xalq tili tarmoqlariga esa ayrim guruhlargagina xos shevachilik, adabiy til normasiga mos kelmagan ba'zi so'zlar, jargo va argolar misol bo'ladi. Adabiy til ana shu xalq tiliga asoslanadi, undan kelib chiqadi va undan oziqlanib turadi.

Yozuvchi va shoир asarlarining o'z davri o'quvchilari uchun tushunarlik darajasi asar tilining xalq tiliga qay darajada yaqin bo'lishiga bog'liq.

Ommaga tushunarsiz bo'lgan so'zlarni me'yoriy ortiqcha ishlatish, ayniqsa muallif tilida bunday so'zlarning berilishi adabiy asarning qimmatini pasaytiradi.

Yozuvchi tilini o'rganishda umumxalq jonli tilidan va an'anaviy adabiy tildan qanday foydalanishi, bu ikki sohani qanday birlashtirib borishi, biror badiiy uslubni e'tirof yoki inkor etishda yozuvchining o'ziga xos xususiyatlarini belgilash lozim.

Yozuvchining o'ziga xos uslubini belgilash quyidagi omillarni hisobga olishni taqozo qiladi:

1. Ma'lum asarning g'oyaviy yo'nalishi va mundarijasi;
2. Muallifning til uslubida qaysi oqimga moyilligi;
3. Yozuvchining til hamda umumiyl madaniyat va xalq turmushining turli tomonlarini qanday o'rganganligi, shuningdek, unga qanday munosabatda bo'lganligini ko'rsatuvchi biografik ma'lumotlar bilan tanishib chiqish.

Adib voqeа-hodisalarni yorqin tasvirlash, obrazlarni xarakterlash, ularga bo‘lgan munosabatini aks ettirish uchun turli usullardan foydalanadi, bunda muallif o‘ziga xos uslublarni qo‘llaydi.

Demak, badiiy asar tilini tahlil qilish orqali yozuvchi badiiy mahorati, o‘ziga xos uslubi ochiladi. Asar tilini har tomonlama o‘rganish asosiy masalalardan biri bo‘lib qoladi.

Onomastika dunyosi, eng avvalo, kishi va joy nomlari (antroponimlar va toponimlar) nihoyatda katta, jamiyat uchun mohiyatli va go‘zaldir, -deb yozgan edi akademik A.K. Matviyev [31].

Onomastikaning diopozoni va muammolari keng bo‘lib, atoqli otlarning mohiyati, til statusi, ismlarning kelib chiqishi; ularning jamiyatdagi o‘rni, tarixi, taqdiri, ismi va odamlar muammosini qamraydi. Atoqli va turdosh otlar ma’nosini ifodalovchi ismlar ishlatilganligiga ikki ming yildan oshdi. [31].

O‘zbek tilining onomastik tizimi hajman ulkan mazmunga boy, serqirra hamda bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘lgan lisoniy hodisadir. «Tilning leksik boyligi konkret lug‘aviy biriklar (leksemalar)»dan iborat bo‘lganidan, tilning onomastik fondini onomastik leksika doirasida mujassamlashuvchi konkret atoqli otlar tashkil qiladi. Ushbu konkret nomlar onomastikada «til birliklari», «leksik biriklar», «nutq birliklari» deb yuritiluvchi terminlarga o‘xshatma tarzida «onomastik birliklar» deb yuritilmogda. Onomastik birlik deyilganda, aslida konkret atoqli ot ko‘zda tutiladi, - deb yozadi E.Begmatov. [21].

Xuddi shu fikrni Ozarbayjon tilshunosi A.Gurbanov ham yozadi: «onomastik birlik onomastika doirasida umuman atoqli ot tushunchasini anglatadi». [23].

Onomastik birliklarni belgilash, ularni tadqiq qilish darajasi turli tillar tilshunosligida turlichadir.

Atoqli otlar bir tur, bir guruhga mansub narsalardan bittasini ajratib olgan holda nomlaydi. Bunda ajratib olinayotgan narsa yoki obyektning unga nom berayotgan kishilar hayotiy ehtiyojlari uchun muhimligi, o‘sha obyektlarni boshqalarga nisbatan qandaydir farqli xususiyatlarga egaligi muhim rol o‘ynaydi.

Ko‘rinadiki, atoqli otlar narsa va hodisalarni, obyektlarni yangilab, donalab atash zaruriyati tufayli yuzaga keladi. Demak, narsa va hodisalarni yangilab, donalab atoqli ot berib nomlash o‘ziga xos ehtiyojlar, qonuniyat natijasidir.

Atoqli otlar til lug‘at sistemasida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, katta bir guruh so‘zlarni qamraydi. Atoqli otlar fanda onomastik birliklar tizimida o‘rganiladi. Onomostika - grekcha so‘z bo‘lib, nom qo‘yish san’ati demakdir.

Bu atama tilshunoslikda ikki ma’noda ishlatiladi.

1. Tilshunoslikning atoqli otlarni o‘rganuvchi bo‘limi.

2. Atoqli otlar majmuasi. [7].

Xo‘sh, atoqli otlarga nimalar kiradi, ularning yaratilishi va tarixi qanday?

Inson uchun, umuman ko‘llardan alohida ko‘llarni, dengizlardan alohida dengizlarni, shaharlardan alohida shaharlarni, odamlardan alohida odamlarni farqlash hayotiy ehtiyoj tufayli paydo bo‘lgan. Bunday ehtiyojlarni qondirish uchun kishilar bir turkumga kiruvchi predmet va hodisalarni ayrimlarini alohida, yakka-yakka ajratib olganlar va uni maxsus nom berish orqali ataganlar. Jumladan, ko‘llarni yakkama-yakka holatda Baykal, Ladoga, Balxash; dengizlarni O‘rtayer, Orol, Kaspiy, Qora dengiz, Filippin; shaharlarni Buxoro, Surxandaryo, Toshkent va boshqa toponimlarning nomlanishi ham, yakka shaxslarning ismi ham shunday yuzaga kelgan.

Tilda atoqli otlarning yig‘indisi mazkur tilning nomlar boyligini tashkil qiladi. Tilning onomastik fondidagi atoqli otlar o‘zi atayotgan predmet yoki obyektning xususiyatiga ko‘ra farqlanadi. Ular turli-tuman jonsiz predmetlarning yoki insonlarning atoqli otlari bo‘lishi mumkin. Boshqacha aytganda, atoqli otlar ham «sistemalarning sistemasi»dir [5]. Ya’ni uning o‘zi alohida bir butun sistemani tashkil qilib, ayni zamonda bir necha sistemalarga bo‘linadi:

1. Antroponimlar (kishi nomlari)
2. Toponimlar (joy nomlari)
3. Zoonimlar (hayvon nomlari)
4. Fitonimlar (o‘simlik nomlari)
5. Teonimlar (diniy nomlar)

6. Astroponimlar (koinot nomlari)
7. Dokumentonimlar (hujjat nomlari)
8. Xronimlar (tarixiy hodisa nomlari).

Qayd qilingan atoqli otlarning har biri o‘ziga xos tizimiylar munosabatlarga ega bo‘lib, bu munosabat ularning ichki bo‘linishlarida namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki, har bir onimik leksema ma’lum bir ma’noni beradi, ya’ni leksema joy yoki shaxs haqida xabar yetkazishi mumkin. Bu xabar esa maxsus onomastik vazifani bajaradi va uslubiy hamda estetik ahamiyatga ega bo‘ladi. Boshqacha aytganda, bir onomastik leksema bir sohada emas, balki bir necha sohada ham ma’lum bir xabarni tashishi mumkin. Shaklan bir xil, mazmuni har xil bo‘lgan onimlar, onomastikada omonimiyani vujudga keltiradi: Guliston (shahar), Guliston (antropomin), Zarafshon (shahar), Zarafshon (antropomin). Turdosh otlar onimik leksemalarga o‘tganida hosil bo‘ladigan apillyativ omonimiya: Yashasin (antropomin), yashasin (fe'l shakli), Botir (antropomin), botir (sifat), Rayhon (antropomin), rayhon (ot) kabi. Onomasimlarda sinonimiya hodisasi mavjud emas. Ularda ko‘p nomlilik (polinomiya) mavjud: Jayxun-Amudaryo, Avitsenna-Ibn Sino kabi.

Yuqorida qayd qilinganidek, tilimizda atoqli otlarning ko‘rinishlari xilma-xil va salmog‘i katta [40].

O‘tgan asrning 60-70-yillarida o‘zbek tilshunosligida bir qator yangi ilmiy yo‘nalishlar paydo bo‘ldi va shakllana bordi. Chunonchi, eksperimental fonetika, fonologiya, morfonologiya, o‘zbek tilini qiyosiy o‘rganish, frazeologiya, uslubiyat, nutq madaniyati, ijtimoiy tilshunoslik, areal lingvistika va boshqalar. Mana shu davrda yuzaga kelgan va jadal rivojlanishga yo‘l tutgan ilmiy yo‘nalishlardan biri o‘zbek onomastikasidir.

O‘zbek nomshunosligi o‘tgan asrning 2-yarmidan boshlab eng rivoj topgan sohalardan biridir. Ayniqsa, bu sohaning antropominika, toponimika, etnonimika sohalarida barakali ishlar amalga oshirildi. O‘zbek ismlarining materiallari atroflicha to‘plangani, uchta nomzodlik dissertatsiyasini (E.Begmatov-1965, G‘.Sattorov-1990, S.Rahimov-1998), E.Begmatovning «Kishi nomlari imlosi»

(1970), «O‘zbek ismlari imlosi» (1972), «O‘zbek ismlari» (1991), «O‘zbek ismlari ma’nosi» (1998), «Ism chiroyli» (1994) kitoblari nashr qilingani bunga dalil bo‘la oladi.

O‘zbek toponimiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasi, ayniqsa, samarali bo‘ldi. Deyarli barcha viloyatlar toponimiyasiga oid ishlar yuzaga keldi. Shu kunga qadar o‘zbek toponimiyasi bo‘yicha 20 ga yaqin nomzodlik, 2 ta doktorlik (Z.Do‘sarov, S.Qorayev) ishi himoya qilindi. Bular Qashqadaryo viloyati (T. Nafasov, T.Enazarov, O.Begimov), Surxandaryo viloyati (Y.Ho‘jamberdiyev, X.Xolmo‘minov), Samarqand viloyati (T.Rahmatov, N.Begaliev, A. Turopov), Sirdaryo viloyati (N. Mingboboyev), Toshkent viloyati (M. N. Ramazonova), Buxoro viloyati (S. Nayimov, A. Aslonov), Navoiy viloyati (Y.Oripov), Jizzax viloyati (A.Zokirov), Farg‘ona viloyati (N.Oxunov, S.Gubayeva, J.Latipov), Xorazm viloyati (Z. Do‘sarov, A.Otajonova), Shimoliy o‘zbek shevalari toponimiyasi (L.Karimova), Toshkent shahri (Sh. Qodirova) toponimiyasi bo‘yicha yozilgan dissertatsiyalardir.

O‘zbek toponimiyasi muammolari H.Hasanov, S.Qorayev, E.Begmatov ishlarida umumiylar tarzda ham tahlil qilingan. O‘zbek tarixiy toponimiyasi va antroponimiyasi bo‘yicha ba’zi ishlar qilindi. N.Husanovning o‘n beshinchisini asr o‘zbek yozma manbalaridagi antroponimlarga, Sh.Yoqubov va B.Bafoyevlarning Alisher Navoiy asarlari onomastikasiga, M.Turdibekovning Abulg‘ozib Bahodirxonning «Shajarai turk» onomastikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlari ushbu fikrni tasdiqlaydi [21].

O‘zbek nomshunoslari olib borgan keng ko‘lamli tadqiqotlar o‘zbek tilshunosligi sohasini bir qator monografiyalar, risolalar, izohli lug‘atlar hamda ko‘p sonli maqolalar bilan boyitdi. Bu sohada, ayniqsa, T. Nafasov, Z. Do‘sarov, H. Hasanov, S. Qorayev, N. Oxunov, N. Husanov, T.Enazarov, X. Doniyorov, A.Otajonova, B. O‘rinboyevlarning xizmati tahsinga loyiqidir [21].

O‘zbek nomshunoslida mavjud bo‘lgan ishlarning aksariyatida ismlar, qisman laqab va taxalluslar, mikrotoponim va makrotoponimlar, etnonimlar tahlil qilingan.

O‘zbek tilidagi atoqli otlarning ba’zi tiplari deyarli o‘rganilgan emas yoki kam o‘rganilgan va tahlil qilingan. Bular kasmonimlar (astronomilar), mifonimlar, agronimlar, nekronimlar, geonimlar, dokumentonimlar, oronimlar, potronimlar, fitonimlar, badiiy onomastika, onomastik uslubiyat, laqab va taxalluslar, atoqli otlarning imlosi, amaliy transkripsiya va transliteratsiyasi, nomshunoslikning nazariy va amaliy muammolari, jumladan, onomastik leksikografiya masalalari va boshqalar.

Atoqli otlarni o‘rganish bo‘yicha tilshunoslар, tarixchi va geograflar qo‘lga kiritgan yutuqlar o‘zbek tilshunosligida onomastika sohasining paydo bo‘lishi va maxsus yo‘nalish sifatida shakllanishiga asos bo‘ldi.

Hozirgi o‘zbek tilidagi atoqli otlar ham nazariy, ham amaliy jihatdan o‘rganilmoqda. Nomlar nazariy, tavsifiy, qiyosiy, tarixiy va sinxron yo‘nalishda tadqiq qilinmoqda. O‘zbek nomshunosligi ilmiy soha sifatida o‘ziga xos ba’zi tekshirish usullari, tamoyillariga ega.

O‘zbek nomshunosligi sohasining paydo bo‘lishi va bu sohada yuzaga kelgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar onomastika sohasiga oid xilma-xil ilmiy tushuncha va tasavvurlarni ifoda qiluvchi boy terminilogiyani yuzaga kelishi uchun bois bo‘ldi [19].

Xulosa qilib aytganda, badiiy asar tilida barcha nutq uslublari elementlari o‘z aksini topgan bo‘ladi. Uni tadqiq qilish har bir yozuvchi yoki shoirga xos uslub manerasini aniqlashga yordam beradi .

Lug‘aviy jihatdan badiiy asar matnining bir bo‘lagini onomastik birliklar tashkil qiladi. Ular turli ko‘rinishlarga ega bo‘lib, nominatov va uslubiy vazifa bajaradi.

Onomastik birliklar til lug‘at tizimida o‘ziga xos xususiyat va mavqega ega, ularni badiiy asar matni bilan bog‘lab tahlil va tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

## I.2. O‘zbek tilshunosligida antroponimiya sohasining o‘rganilishi.

Ismlarning tarixi uzoq,

Iismlarda asrlik qismat.

(E. Vohidov).

O‘zbek tili bugungi kunda o‘zbek millatining fikr almashuv quroli sifatida katta ijtimoiy vazifa ado etmoqda. Bu millat vakillarining ijtimoiy aloqasini to‘liq ta’minlashga xizmat qilmoqda. O‘zbek tilida O‘zbekistonda yashovchi xalqlarning tarixini, bugungi fidokorona mehnatini ulug‘lovchi yuksak saviyadagi badiiy asarlar yaratilgan va yaratilmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, ona tilimiz o‘zbek xalqining har jihatdan kamol topishi va taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. O‘zbek tilininng bugungi taraqqiyotiga tilshunos olimlarimiz, yozuvchilarimiz, shoirlarimizning xizmatlari beqiyos. Ularning katta mehnatlari tufayli o‘zbek tilining ko‘pchilik sohalarida qat’iy normalar belgilandi, til birliklarining aloqa jarayonidagi lisoniy namunalari tafsiya etiladi. Til taraqqiyotidagi ko‘pgina masalalar ilmiy-nazariy asosga qo‘yildi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi tilimiz leksikasini, uning grammatik qurilishini yanada chuqurroq va har tomonlama tadqiq qilish vazifasini qo‘ydi. Inson nimadan xabardor ekan, nimani ko‘rgan va bilgan ekan, u kishilarning birdan bir aloqa aralashuvi quroli bo‘lgan o‘z tilida ifodasini topgan. Tilimizdagi nomlar o‘zi anglatayotgan tushunchaning xarakteri, narsalarning atalishidagi xususiyati va belgilariga ko‘ra farqlanadi.

Tildagi atoqli otlarning katta bir guruhini kishilarga qo‘yiluvchi maxsus nomlar tashkil etadi. Kishilarning atoqli otlari fanda antroponimlar deb yuritiladi. Grekcha antropos - odam, inson, nomos - ot, ism, nom aniqlanishi demakdir [24].

Atoqli otlar xuddi boshqa so‘zlar singari tildagi qadimiy hodisalardandir. Buni insoniyatning qadimiy o‘tmishiga oid xalq og‘zaki ijodi namunalari va yozma yodgorliklar tilida saqlanib qolgan kishi nomlari, afsonaviy va mifologik qahramonlarning nomlari yaqqol ko‘rsatadi.

Kishiga ism berish va kishilarning atoqli otlari qadimiy tarixga ega bo‘lib, bolani nomlashda ma’lum tarixiy davr, iqtisodiy-siyosiy hayot, ma’naviy turmush

doirasining turli-tuman urf-odatlari muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, diniy tasavvurlar bolalarning nomlanishiga ta’sir ko‘rsatgan.

Turkiy xalqlarning beshinchi-yettinchi asrlar tarixini o‘zida ifodalagan O‘rxun-Enasoy yozma yodgorliklari matnlarida uchrovchi bir qator ismlar: Burisangmusht, Oqbosh, Qoraxon, Qorakur va boshqalar turkiy xalqlarning eng qadimgi antropoleksemalaridir. Davrlar o‘tishi bilan bir qator ismlar eskiradi va iste’moldan chiqadi, ularning o‘rniga yangi-yangi atoqli otlar kirib keladi. Kishilarning orzu-umidlari, intilish va ideallari bilan bog‘liq ismlar uzoq yashaydi. Hozirgi davr kishilari ismlarining asosiy qismini ana shunday nomlar tashkil qiladi.

Antroponimlar masalasi rus tilshunosligida ancha keng va har tomonlama o‘rganilgan. Bu sohada A.V.Superanskaya, S.I.Zinin, A.A.Reformatskiy, A.Sokolov, T.Tropin, L.Uspenskiy, V.K.Nikonov kabilar yirik monografik ishlar yozganlar [50]. Turkologiya va o‘zbek tilshunosligida esa Sh.Zafarov, M.Odilov, Y.Menajiyev, X.Azamatov, E.Begmatov, E.Qilichev, M.Shamsiyeva va boshqalar turli mavzularda kandidatlik dissertatsiyalarini va ilmiy maqolalar nashr qilganlar. Y.Menajiyev, X.Azamatov, D. Abdurahmonov, E.Begmatovlar «Ismingizning ma’nosи nima» kitobida tilimizdagи tushunilishi qiyin bo‘lgan nomlarning ismlik va turdosh otlik ma’nolarini tushuntirib bergenlar. Asarning so‘zboshi qismida kishi nomlarini kelib chiqishi, nom qo‘yish odatlari va usullari haqida aytib o‘tilgan [32]. Bu kitobda o‘zbek tilidagi ko‘p ismlarning dastlabki ma’nolarini tushuntirib berish maqsad qilib qo‘yilgan. Shu sababli kitob lug‘at tarzida tuzilgan. Lug‘atda, asosan, ma’nosи ochiq ko‘rinib turmagan, ya’ni boshqa (arab, tojik va boshqa) tillardan kirib, o‘zlashib ketgan kishi nomlari berilgan va ularning ma’nolari ko‘rsatilgan. E. Begmatovning «Nomlar va odamlar» kitobida ism qo‘yish odatlari, ismlarning tarixiy-etnografik ma’nolari tushuntiriladi. Shuningdek, hozirgi zamon o‘zbek tilida keng qo‘llanilayotgan ismlar ro‘yxati berilgan. Ushbu kitob ilmiy-ommabop tarzda yozilgan bo‘lib, «Ismlar va tilsimlar», «Hurmat va zulmat», «Qizlar qismati», «Davrimiz va ismimiz» kabi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi. Har bir bo‘limdagi nomlar boshqa turkiy xalqlardagi

nomlari bilan cho‘g‘ishtirilgan, ular haqidagi ba’zi latifalar ham kiritilgan [14]. Tilshunos N.Mirzayev «O‘zbek zooantropomimlar» nomli maqolasida qadimgi turkiy xalqlar ba’zi yirtqich va uy hayvonlari haqida turli xil totem tasavvurga ega bo‘lgani bayon etilgan. Bo‘riga bo‘lgan ishonch esa totem tasavvuriga bog‘liq ot bo‘lib, uning asosiy qismi o‘zbeklarning turli guruhlarida bolaning tug‘ulishi, uning hayotini saqlab qolish bilan bog‘langan. Bo‘ri, Bo‘riboy, Boybo‘ri, Bo‘ritosh, Bo‘rigul, Bo‘rixol kabi ismlar yirtqich hayvonlarga e’tiqod tufayli paydo bo‘lganini yozib, keyingi davrlarda bunday atoqli otlarning ishlatilish doirasi ancha kengayganlini aytib o‘tadi [21]. Tilshunos E.Qilichev tadqiqotlarida antropomimlarning stilistik qo‘llanilishi haqida fikr yuritiladi. U yozuvchi S.Ayniy asarlarida qo‘llanilgan antropomimlar haqida quyidagilarni yozadi: Yozuvchi (S.Ayniy) asarlari strukturasidagi antropomimlar tasvirlanayotgan voqeа mazmuniga mos holda uni badiiy aks ettirish uchun xizmat qilgan. Uning asarlarida so‘zlamaydigan ism yoki laqab yo‘q, desa ham bo‘ladi. Deyarli har bir antropomim tasviriy bo‘lib, nimadirni aks ettiradi. U o‘z fikrini boshqa bir maqolasida davom ettirib, o‘zbek tilida antropomimlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ayniqsa, ularning badiiy adabiyotdagi rolini aniqlash muhim amaliy va nazariy ahamiyatga ega ekanligini qayd qiladi. Shu bilan birga ayrim so‘z san’atkorlari tomonidan tanlab qo‘llangan nomlarning semantik-stilistik xususiyatlarini o‘rganmay turib, uning asarlari badiiy qimmatini to‘la belgilash mumkin bo‘lmay qoladi. Shu fikrdan kelib chiqadigan bo‘lsak, o‘zbek tilidagi xalq og‘zaki ijodi namunalari, jumladan, dostonlarda uchraydigan turli xil personajlarning nomlari kishi diqqatini o‘ziga tortadi. Chunki dostonlarda xalq qahramonlari, ular ichidan yetishib chiqqan sarkardalar harakat qiladi. Ularning nomlari ham o‘zining etimologik-semantik va qo‘llanish tomonidan boshqa asarlaridagi personaj namunalaridan farqlanib turadi [39].

Til lug‘at sostavining ajralmas bir qismi hisoblangan antropomimlar morfologik va sintaktik jihatdan ma’lum til normalariga, qonun-qoidalariga bo‘ysunadilar. Ammo ular qolgan turdosh otlardan konkret shaxs-individual odamni boshqa ko‘pchilik odamlardan ajratish bilan farq qiladilar.

O‘zbek tili leksik sistemasining bir qismi hisoblangan antroponimlarning o‘zi ham o‘ziga xos yana bir sistemani tashkil qiladi. Bular:

1. Ismlar sistemasi: Kumush, Feruza, Dilshod, Alisher.
2. Laqablar sistemasi: Kar, cho‘loq.
3. Taxalluslar sistemasi: Navoiy, Gulxaniy, Julqunboy.
4. Familiyalar sistemasi: Saidnosirova, Qahhorova, Mo‘minova.
5. Patronomik nomlar sistemasi: Rasulovna, Nusratovich.
6. Shartli nomlar sistemasi: Bahrom-Baxi, Shoxrux-Shoxi.

1960-yillardan keyingi davrlarda o‘zbek tilidagi atoqli otlar tizimini zamonaviy tilshunoslik usullarida tadqiq qilish ayniqsa kuchaydi. Jumladan, yuqorida qayd qilganimizdek joy nomlari, kishi nomlari va boshqa sohalar bo‘yicha anchagina ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar yozildi [45]. Shunga qaramasdan o‘zbek tilshunosligi bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni yetarli va qoniqarli deb bo‘lmaydi. Chunki,

- til sathimizda atoqli otlar juda ko‘p, ularning barcha ko‘rinishlarini to‘plash va tarixiy taraqqiyotini o‘rganish lozim;
- o‘zbek tilidagi qadimiylar nomlarning nomshunoslikka oid lug‘atchilikdagi (onomastik leksikografiya) ilmiy tamoyillari ishlab chiqilgan emas;
- tarixiy nomlarning materiallari shu kunga qadar deyarli o‘rganilgan emas;
- o‘zbek atoqli otlariga oid shu kunga qadar qilingan ishlarning deyarli barchasida nomlarning xususiyatlari tahlil qilinadi. Lekin bu kuzatishlar nomshunoslikning amaliy muammolari bilan bog‘lanmaydi. Ayniqsa, kishi nomlarining yozilishi, imlosi, uslubiy qo‘llanishi haqida yetarli fikr bildirilmaydi. Hozirgi o‘zbek tilidagi nomlarning muhim nazariy hamda amaliy muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish ko‘p jihatdan bu nomlarning tarixiy rivojini mukammal ravishda o‘rganish bilan bog‘liq. Bu fikr o‘zbek tilidagi barcha nom tiplari va guruhlari uchun taalluqlidir.

O‘zbek tarixiy antroponimiyasini tadqiq qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ba’zi dolzarb muammolar quyidagilar:

1. O‘zbek tarixiy antroponimiyasini barcha kategoriyasini va komponentlarini - kishi ismlari, laqablar, taxalluslar, o‘tmishda o‘zbeklar uchun rusum bo‘lgan nomlarning arabcha, ba’zi fors-tojikcha shakllarini har tomonlama o‘rganish muhimdir. Bular o‘tmishda amalda mavjud bo‘lgan nomlar bo‘lib moziyda yashab o‘tgan kishilarning atoqli otlari yig‘indisidir.

2. Bevosita antroponimiya mazmunga kirmasa ham, ammo odam inson shaxsini anglatuvchi, u bilan bog‘liq tasavvurni ifoda etuvchi ba’zi xayoliy, afsonaviy, majoziy, to‘qima laqablarni tadqiq qilish.Chunonchi, Odam, Momo, Havo, Hazrati Xizr va boshqalar. Bu xildagi atoqli otlarning ba’zi namunalari o‘zbek folklor asarlarida mavjud. Masalan, devlar, odamsimon tasavvur qilinuvchi mavjudotlar, afsonaviy kuchlar va boshqa nomlar. Ular mifonimlar, teonimlar deb ham yuritiladi.

3. O‘zbek tarixiy antroponimiyasining tarkibiy qismlaridan biri o‘zbek badiiy adabiyoti tilida uchraydigan inson obrazining nomlaridir. Bunday nomlarning bir guruhi tarixda yashab o‘tgan real shaxslar nomlaridan iborat bo‘lsa, ikkinchi guruhi yozuvchi tomonidan badiiy obrazlar uchun o‘ylab topilgan yoki mavjud ismlar fondidan tashlangan atoqli otlardir. Bu nomlarning har ikkala guruhi badiiy asar tilida muayyan badiiy-uslubiy ma’no tashiydi, obrazning ma’lum xususiyatlarini ifodalash, ochishga xizmat qiladi. Shu sababli bu nomlarni yozuvchining badiiy tili, badiiy mahorati, keng ma’noda o‘zbek tilining tarixiy uslubiyati bilan bog‘lagan holda o‘rganish lozim.

4. O‘zbek antroponimiyasini o‘rganishdan maqsad-nomlarning turli tarixiy davrlardagi holati va rivojini tadqiq qilish.

Turkiy ismlar fondi ko‘pchilik (tarixiy) turkiy xalqlar uchun mushtarak mulk ekanligi ma’lum.Lekin bu ismlar barcha turkiy tillarda bir xil darajada saqlanmagan, mavjudlari esa ma’nosи va lisoniy shakliga ko‘ra o‘ziga xos tomonlarga ega. Demak, turkiy nomlar fondi, bir tomonidan qardosh turkiy tillar antroponimiyasida mushtaraklik belgisini yuzaga keltirsa, ikkinchi tomondan, har bir til nomlari majmuida o‘ziga xoslikni, milliylikni ta’minlaydi. Mana shu ma’noda hozirgi o‘zbek tilidagi asli turkiy ismlarni qadimiy turkiy ismlar fondi

bilan qiyosan o‘rganish va bu orqali o‘zbek antroponomiyasidan milliy o‘ziga xoslikni yuzaga kelishi va buning asosiy lisoniy belgilarini aniqlash juda muhimdir.

O‘zbek antroponimiyasi fondiga xos sezilarli o‘zgachalik va belgilardan biri unda boshqa tillardan kirgan ismlarning ko‘pligidir. Bularning aksariyati aslida arabcha va fors-tojikcha bo‘lgan nomlardir. Bu nomlarning o‘zbek antroponimiyasiga kirib kelishi va vazifaviy xususiyatlari hozirga qadar o‘rganilgan emas, shuningdek, bu nomlarning miqdori, nomlar fondidagi mavqeyi, iste’mol darajasi to‘g‘risida turli fikrlar mavjud. O‘zlashgan ismlar haqida gap ketganda, o‘zbek tiliga ism tarzida o‘zlashgan nomlar (Abdulla, Abdukarim kabi)ni arabcha, forscha o‘zlashgan turkiy so‘zlardan, o‘zbek tilining o‘zida yasalgan ismlardan (Davlat, Gulnora, Madaniyat, Ma’rifat) farqlash lozim bo‘ladi. Chunki bu nomlarning birinchi guruhi to‘liq ma’nodagi antroponimik o‘zlashmalar bo‘lsa, ikkinchi guruhi o‘zbek tilining o‘zida yasalgan, o‘zbeklar tomonidan ijod qilingan ismlardir, ularni o‘zlashmalar qatoriga kiritish nazariy jihatdan xatodir. Buni farq qilmaslik o‘zbek tilidagi o‘zlashgan ismlar miqdorini sun’iy ravishda ko‘paytirish, oshirib ko‘rsatishga olib keladi.

Antroponimlarning umumantronim turlari ham tilimizda uchraydi. Umumantronimlarga tilimizdagি Barno, Shamshod, Izzat, Nazar kabi ham ayol, ham erkaklarga qo‘yluvchi ismlar misol bo‘ladi.

O‘zbek nomshunosligining dolzarb muammolari orasida laqab va taxalluslarni o‘rganish ishi alohida o‘rin tutadi. Chunki qadimiy davrlarga murojaat qilganimiz sari ismlar va laqablar orasida farq kamaya boradi va umuman laqablarni nomlash vositasi sifatidagi roli orta boradi.Umuman, laqab va taxalluslarni faqatgina nominativ vosita sifatida o‘rganish yetmaydi, balki ularni badiiy-uslubiy vosita tarzida tadqiq qilish ham muhimdir. Bunday kuzatuvlarda ism, laqab va taxalluslar orasidagi atoqli otlarga xos umumiylig va o‘zaro farqlarni ochib berish alohida ahamiyatga egadir.

Nomshunoslik sohasida erishiluvchi nazariy xulosalar va qo‘lga kiritilgan ashyoviy, daliliy materiallari o‘zbek antroponimlarning izohli, etimologik, imloviy

lug‘atlarni yaratish uchun xizmat qilmog‘i kerak. Hozirga qadar bu til lug‘atlarining birortasi ham to‘liq tuzilgani yo‘q.

Yuqoridagi mulohazalardan ayon bo‘ladiki, o‘zbek tilidagi antroponimlarning mavjud tiplari ularning hajmi va chegarasi hozirga qadar belgilangan emas. Professor E.Begmatov aytganidek: «Atoqli otlarni har tomonlama o‘rganish o‘z tadqiqotlarni kutmoqda» [20].

### **I.3. Badiiy asarda antoponimik birliklardan foydalanishning ahamiyati.**

O‘zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi, xalqimizning o‘zligini anglashi, mamlakatimiz ichki va tashqi hayotida tilning o‘rni, milliy ma’naviy va madaniy qadriyatlarni tiklash xalqimiz hayotidagi muhim, o‘z oldiga qo‘yan asosiy masalalarning biri ekanligidan dalolat beradi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning sa’y-harakatlari bilan ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviy merosni o‘rganishga keng imkoniyatlar yaratildi, milliy-ma’naviy qadriyatlarimiz qaytadan tiklandi. Birinchi yurtboshimiz I.A.Karimov bu haqida shunday fikrlarni bildirib o‘tgan edilar: «Biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan beباho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank moliya tizimi kabi o‘ta muhim sohalarda ona tilimizning qo‘llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug‘atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o‘zlikni, Vatan tuyg‘usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasizdir» [2].

Ana shu g‘oyadan kelib chiqib hozirgi o‘zbek tlining o‘ziga xosligiga va nutqiy imkoniyatlarini har tomonlama ochib berishga doir fikr-mulohazalar bugungi kun tilshunosligi uchun dolzarb va qimmatlidir. Masalan, kishi nomlarini ifodalovchi antroponimlar ham shular jumlasidandir. Chunki antroponimlarda millatning milliyligi va o‘ziga xosligi namoyon bo‘ladi.

Badiiy asarlardagi qahramonlar xarakter-xususiyati va qiyofasini yoritishda esa ko‘pincha yozuvchilar antroponomik birliklardan, ya’ni laqablardan, qahramon familiyasidan foydalanadilar. Bu kabi birliklar qahramonning kelib chiqishi, hayotdagi o‘rni, kasb-kori, hayot tarzi, atrofidagilarga munosabati, tashqi ko‘rinishi, kiyinishi va hokazolar haqida ma’lumot berishi mumkin. Badiiy asarda antoponimik birliklardan turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Jumladan :

1. Biror shaxsni xarakterlovchi, uning ustidan hazil-mutoyiba yoki kamsitish, haqorat vositasi sifatida. Masalan: “...Ertasi Ulton piyonning vahimasiga «ergashib» rayondan chiqib kelgan bir to‘da odam Quriqsoy yoqasiga enaverib, ko‘ngil aynituvchi manzarani ko‘rdi.» (Sh.Xolmirzayev). Bu misolda piyon so‘zidan foydalanib ijodkor qahramonining ichkilikka berilgan kishi ekanligiga ishora qilyapti.

Bundan tashqari ezmachuruk, shayton kabi so‘zlar shaxsni salbiy tomondan xarakterlaydi. Bu xususiyati bilan ular laqabga yaqin turadi. Ammo hali laqab darjasiga ko‘tarila olmaydi. Qachonki bunday so‘zlar ijodkor tomonidan ko‘p bor, o‘sha ma’noda, o‘sha shaxsni xarakterlash uchun qo‘llanilsa, shaxsning doimiy atributiga aylansagina laqab darajasiga ko‘tarilishi mumkin. Mana shunday darajaga yetganda bu so‘zlar shaxsning ismiga qo‘shilib aytila boshlaydi va laqab shakllanadi: Halima ezmachuruk, Karim shayton kabi.

2. Laqabarning shakllanishida laqab vazifasidagi so‘zning shaxsning ismi o‘rnida qo‘llana boshlashi, ya’ni shaxsni ismi bilan emas, laqabi bilan atash odat bo‘lishi ham mumkin. Bu holda laqab atoqli ot vazifasini bajara oladi. Laqabning shaxs ismi o‘rnida qo‘llana boshlanishi uni to‘liq, ma’nodagi laqab holida shakllantiradi.

- Sadir Minullin degan odamni taniysizmi?
- Tanimayman.
- Ha... To‘g‘ri, Minullinni tanimasligingiz mumkin, lekin Qozon deganni bilishingizni rad etolmasangiz kerak. Qozon – Minullinning laqabi.

(Tohir Malik)

3. Ijodkorning yana bir maqsadiga ko‘ra laqabga aylangan, aniqrog‘i laqab vazifasiga ko‘chgan so‘z doim shaxs ismi tarkibida, u bilan birga qo‘llaniladigan yoki ism o‘rnida mustaqil holda laqab vazifasini bajaradigan bo‘lib keladi. Bunda laqabning kishi ismidan keyin kelishi tipik holatdir. [40] Masalan: Po‘lat puchuqqa uchrashgandim, - garajda dispatcher edi, - ”Jo‘rajon, besh yuz so‘m bermasang, moshin ololmaysan” dedi. Menda sariq chaqayam yo‘q. Puchuq ko‘p gapirovagan edi, ”asli meni emas, seni qamashlari kerak edi” dedim. (Sh.Xolmirzayev)

4. Bundan tashqari laqablarning oddiy, funksional-nominativ vazifadan tashqari, uslubiy vazifani ham bajara olishidir. Bunga ko‘ra, o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan laqablarning ma’lum guruhlari badiiy adabiyot tilida uslubiy badiiy vosita sifatida qo‘llana boshlaydi. Badiiy adabiyot tiliga kirgan laqablar asarda ishtirok etuvchi asar qahramonlari, personajlarining xarakterini ochishda, ularni satirik, yumoristik vaziyatlarda tasvirlashda, asar tiliga emotsional-ekspressiv ruh bag‘ishlashda muhim rol o‘ynaydi.

Laqablarning uslubiy xususiyatlari badiiy tilda, ayniqla, shaxslarning salbiy xususiyatlarini tasvirlash, asar qahramonlarining, qolaversa, yozuvchining laqab egasiga munosabatini ifodalashda juda qo‘l keladi. [40] Masalan:

- E! – dedi Hasan. Qulluq bo‘lsin, tiling chiqib qopti?
- Ha, tilimni... chiqardingiz, - javob qildi Shodagul pismiq.

(Sh. Xolmirzayev)

Badiiy adabiyot tiliga kirgan laqablarning hammasi ham uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lmasligi mumkin. Agar bu xususiyat laqab egasining kasb-kori, mashg‘uloti, o‘zidagi belgi-xususiyat bilan bog‘liq bo‘lsa, yuqorida aytib o‘tilganidek uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lmaydi:

«Shunda Quyun qo‘rboshi o‘girildi»

«Uning otasi Rahmon **polvon** qirq yoshida ham kurashda yiqilmagan, keyin bir o‘rta yashar o‘rtacha polvon bir qoqmada yiqitib qo‘yganida dardi shunchalikki, omborga bo‘yra to‘shab, ustidan suv sepib, unga bag‘rini berib yota-yota oldin yo‘talni orttirib, keyin qon qusa-qusa o‘lib ketgandi.»

«Omon **mergan** mahsi ustidan choriq kiyib olgan, oyog‘i yengil, qorga botmasdi.

«...Botir **cho‘pon** iljayib, quvonib dasturxon yozdi.»

«Madiyor **dallolning o‘g‘li!**» (Sh. Xolmirzayev)

Adiblarimizning ismlarni familiyalar bilan ham qo‘llagan holatlarini kuzatishimiz mumkin. Bu kabi ko‘rinishlarni yozuvchi xususan, Shukur Xolmirzayev uslubida mansabdar shaxslarning obrazini ifodalanishida uchratishimiz mumkin.

«**Kozim Puxtayev** ellikdan oshgan, mayin-ipakdek kishi.

«**Dilnura Qosimovani** kuzatib partkom kotibi ham chiqqach, **Husan Keldiyev** stol qoshida bir qo‘lini beliga tiragancha ikkinchi qo‘lini cho‘zib:

- Ana, qog‘oz, ruchka... Yoz, yoz!»

«Boyquvar tashqariga chiqqanida gardishi tepaga qayirib qo‘yilgan shlyapasini boshiga kiygan **Shoyim Shaydulov** bitta byuro a’zosining «Moskvich» mashinasi yonida edi.

- Ajabo, men bilmay yurgan ekanman. Qoching yo‘ldan, - dedi. – Hov, **Xo‘jamboy Madiyorov!**»

Ijodkor Tohir Malik uslubida esa mansabdar qahramonlarni ularning mansabi orqali ifodalanishini kuzatishimiz mumkin:

- **Prokurorning ayblovini tushundingizmi?** Jinoyatingizga iqrormisiz?

Sohib savolni tushunmagaday **sud hakamiga** qarab qoldi. **Hakam** yoshlarning o‘jarlik odatlari borligi uchun ham uni qistamadi.

**Hakam prokurorga** baqirib yubormaslik uchun, ko‘zlarini undan oldi.

**Komissar** avvaliga uning harakatini tushunmadi.

Shunday qilib, shaxs nomlariga qo‘silib kelgan turli xil laqablar, familiyalar ushbu shaxslarning jamiyatdagi mavqeyi, o‘rnini ko‘rsatish bilan birga kitobxonga ma’lum bir ruhiy zavq beradi, badiiy tasvirda obraz mohiyatini yanada yorqinroq anglashga yordam beradi va har bir ijodkorning o‘ziga xos tasvir vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Biz xuddi ana shu mulohazalardan kelib chiqib, mustaqillik davri hikoyanavislari hikoyalardagi antroponimlarning semantik-stilistik xususiyatlarni va antroponimik shakllarni ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganishga jazm etdik.

## **II bob. O'zbek hikoyachiligidagi antroponimlarning o'rni.**

### **II.1. Tohir Malikning antroponimlardan foydalanish mahorati.**

Tohir Malik 1946 yilning 27-dekabr kuni Toshkentda harbiy xizmatchi oilasida dunyoga keladi. Dastlabki hikoyasi 1960 yilda "Gulxan jurnalida chop etiladi. 1963 yilda Tohir Malik Toshkent Davlat univeritetining kechki jurnalistika bo'limiga o'qishga kirib, kunduzi qurilishda duradgor, g'isht teruvchi bo'lib ishlay boshlaydi. U ijodga doir mashqlarni davom ettirar ekan, ustoz-tog'asining ikki o'giti - "O'zing yaxshi bilmagan narsani yozma", "Boshqalar yurgan yo'ldan yurma, o'z yo'lingni top"ga hamisha amal qilgan. Bolalarga atab yozilgan hikoyalari bilan badiiy adabiyot sirlarini o'rgangan Tohir Malik keyinchalik o'zbek adabiyotida kam e'tibor berilgan fantastika janriga qo'l uradi va bir qator asarlari bilan kitobxonlar e'tiborini qozondi. Uning talabalik yillari yozilgan "Hikmat afandining o'limi" asari o'zbek adabiyotining fantastika yo'nalishida yaratilgan birinchi qissa hisoblanadi. Yozuvchining bir qator asarlari rus va boshqa tillarga tarjima qilingan. "So'nggi o'q" asari asosida yetti qismli, "Shaytanat" asari asosida yigirma qismli badiiy filmlar suratga olinib, namoyish etilgan. U ijodiiy faoliyati davomida hayotni, insonlar tabiatini atroflicha o'rganadi. Yozuvchi asarlarini o'qir ekansiz, ularda tasvirlangan eng yomon odamlardan ham ba'zan nafratlanmaysiz, aksincha ularning qismatiga achinasiz. Nega shunday? Chunki yozuvchi insonlarni, ularning ichki kechinmalarini, ruhiyatlarini sinchiklab o'rganadi va kitobxonni ham mana shu ruhiyat olamiga olib kiradi. Uni shu holga solgan sabablarni tahlil qilishga va xulosa chiqarishga yo'naltiradi.

"Alvido, bolalik" asari Tohir Malik ijodida alohida o'rin tutadi. Asardagi asosiy mavzu - hech kim jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi, bolani atrof-muhit, jamiyatdagi turli illatlar jinoyatchiga aylantiradi. Bu haqida adibning o'zi shunday deydi: "Men o'smirlar va yoshlarning jinoyat ko'chasiga kirib qolayotganiga befarq qarab turolmayman. Bolalar axloq tuzatish koloniylariga har borganimda yuragim eziladi. Ozod, erkin yashab, o'qib, hunar o'rganadigan yoshdagi bolalar bu yerga qanday tushib qoldilar?! Nahot jinoyat olami ularga jozibali ko'rinsa?!"

Men jinoyat olamini "Shaytanat" ya'ni shaytonlar yetovidagi zulmkorlar mamlakati deb atab, "Ehtiyot bo'ling, jigarlarim, bu ko'chaga yaqin yo'lamang. Boshi berk bu ko'chaning adog'ida faqatgina azobli, xorli o'lim topasiz.", demoq niyatida yozdim. Yozganlarimni ogohlantirish deb qabul qilishlarini istardim". Mazkur asar sahnalashtirib Toshkentda va Andijonda yoshlar teatrlarida namoyish etilgan. Yozuvchi ko'pincha fantastik, ilmiy-fantastik va sarguzasht yo'nalishda yozadi. Shu orqali ham hayot, odamlar va jamiyat haqida ancha keng mushohada yuritadi. Shu bilan birga, «Qaldirg'och» kabi epik asarlar ham yaratgan. Mazkur qissada Abdulla Avloniy hayoti va faoliyati, tarixi, taqdiri misolida 20-yillar o'zbek ziyorilari sinfining shakllanishi haqida bahs yuritadi. Shu orqali xalqimiz madaniy-ilmiy dunyoqarashi, kurashnni umumlashtirib beradi. Tohir Malik nafaqat mohir hikoyanavis, qissanavisgina, balki jamoatchi, jurnalist va tarjimon sifatida ham faol xizmat qiladi. Uning bolgar adabiyotidan qilgan tarjimalari, Emil Amit, Axier Hakimov, Suhrob Muhamedov kabi adiblar yaratgan bir qator hikoya, qissalarni o'zbek tiliga tarjimasi keng o'quvchiga taqdim etilgan. [74]

Tohir Malik hikoyalarida antroponimlarni qo'llashda o'ziga xos uslubni yaratgan. Ijodkor hikoyalarida bosh obrazlarni nomlagan, ammo epizodik obrazlarni nomlamagan. Balki bu bilan ijodkor kitobxon fikrini asosiy masalaga qaratishi kerak demoqchi bo'lgandir. Yozuvchi hikoyalaridagi antroponimlar tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, u Erkin nomli hikoyasida o'n uchta obrazdan to'rttasinigina ismlar bilan keltirgan. Hikoya bosh qahramoni nohaq ayblovlar qurboni o'smir Erkin, bu ism ma'nosiga nazar tashlaydigan bo'lsak:

Erkin – o'zbekcha, hur, ozod bola.

Erkin qamoqxona mahbusiga aylanib ulgurmasidanoq jon taslim qiladi. U «xalq dushmani» degan nohaq ayblovdan, qaramlik iskanjasidan ozodlikni afzal ko'radi. U tirik holda hurlikka erisholmasligini anglagach, bu dunyonи tark etib, erkinlikka erishishni tanlaydi. Demak, u ismiga monand erkin bo'lib qoladi. Va har qanday sharoitda ham ozodlikni muhim deb hisoblaydi. Ijodkor bu obrazga shunchaki nom bermagan, u orqali ozodlik, mustaqillik, erkinlik tuyg'ulari barcha narsadan hattoki qamoqdagi hayotdan ham ustun ekanligi yoritgan:

«Shunda bizning oldimizga hur qush bo‘lib uchib kelasan. Bo‘laqol, kutyapmiz seni...», «Ko‘z oldidagi daryoda qon mavj urdi. Mavjlar ustida qamoqxona, qamoqxona ichida Erkin chayqaldi. Chayqala-chayqala hushidan ketdi. U akasi aytganday yengil uchdi. Ucha-ucha dadasi tomon yo‘l oldi...», «U o‘zini yengil his qilar, qushday yengil uchardi...».

Javlon (Javlon - arabcha, chirolyi va shahdam qadamlar tashlovchi, harakatchan, chaqqon).obrazi orqali nohaqlik yuqoridagi misolda aks ettirilgan.

Javlon salbiy xarakterdagi obraz, lekin u ismi jismiga monand harakatchan va chaqqon, shu darajada chaqqonki, hali aybi bo‘yniga qo‘yilmagan yigitchaga hukm ham chiqarishga tayyor. Uning tashqi ko‘rinishi, o‘zini tutishi ham ismiga munosib edi:

“Javlon hatto etigining changini ham qoqmay uyga kirib keldi. Avval namatni, so‘ng to‘shalgan ko‘rpachalarni bosib o‘tib, tokchaga yaqinlashdi...”

“Onasi yana javob topolmay qoldi. Savollariga javob bo‘lmagach, Javlon ovozini balandlatib so‘radi... ”

Yozuvchi Erkinding otasini Mirabbosov nomi bilan tilga oladi. Uning ism bilan emas, familiya bilan atalishi ham ma’lum vazifa bajargan, ya’ni uning amal kishisi ekanligiga ishora. Bunga ijodkor hikoya so‘ngida ishora qiladi:

“Javlon Jabborov unsurlar to‘dasi bilan yashirin til bog‘laganini bo‘yniga oldi. Aybini qon bilan yuvishga ont ichdi. Hay’at uning qasamini inobatga olib, bolsheviklar safida bir yillik sinov muddati bilan qoldirdi. Majlis raisi Mirabbosov ...1919-yil”.

Mirabbosovning do‘sti Nozimxo‘ja asarda faqatgina bir o‘rinda tilga olingan. Ammo, nazrimizda, u ahamiyatga molik shaxs bo‘lganligi uchun ham adib uni ism bilan qo‘llagan. Masalan: ”- Kechqurun Nozimxo‘ja akangizni ham olib ketishibdi, - dedi u sarosima bilan. – Bittadan terishyapti. Siz hoziroq uyingizga boring. Dadangizning kitoblarini, kundalliklarini, maktublarini, xullas, yozilgan qog‘oz zoti borki, berkiting. Julqunboy bilan Cho‘lponning kitoblari zinhor yuzada qolmasin. Ehtiyyot bo‘ling, bolam, bora qoling...”

Demak, yozuvchi tomonidan bu obrazga ham ilm-ma'rifatli, jamiyat uchun kerakli shaxs sifatida qaralgan.

Hikoyada shulardan boshqa barcha qahramonlar ularning jamiyatdagi o'rnini ifodalovchi shakllar, ya'ni shaxs otlari bilan ifodalangan:

“- Nimaga, **muallim**, -deb e'tiroz bildirdi Erkin, **-dadam...** yo'qlar-ku? Shunda ham kelishadimi bizlarnikiga?”

“- **Onasi** esa hamon yig'lamsirab maktublarni, hujjatlarni to'plardi.”

“Erkinning **buvisi** chiqib, ”**Bolam** bolshevik bo'lgan edi, to'g'ri, lekin otabobolariday yotaversin...”

“**Ona** nima qilarini bilmay turganida, katta eshik ochilib, bir **askar** ko'rindi.”

“**Kampir qizini** bag'riga bosib, ho'ng-ho'ng yig'ladi.”

“**Akasi** uyda ekan. Uni sal cho'chibroq qarshi oldi... O'zлari boradilar, - dedi akasi.”

“**Akasi** ko'rinxay qoldi. Erkin ko'zlarini yumdi.”

“Beliga enli kamar bog'lagan **soqchi yigitchaning** jimb qolganidan xavotirlanib, eshik tuynugini ochib qaradi.”

Har bir ota-onan farzand ko'rар ekan, Allohga shukurlar aytib, undan bolasining umrini, rizqi va istiqbolini so'rab duo qiladi. Katta bo'lgach o'ziga suyanchiq, do'st, yo'ldosh bo'lishini orzu qiladi. Shu asnoda unga go'zal va mazmunli ism qo'yadi. Adib Tohir Malikning “Padarkush” hikoyasi qahramonlari ham yolg'iz o'g'illariga Sohib deb nom qo'shgan. Sohib arabcha ega, xo'jayin, yo'ldosh, do'st. To'g'ri, bu obraz bir umr ota-onasiga yo'ldosh bo'lib o'sdi. Ammo ota-onan undan nafslarini qondirish yo'lida qurol sifatida (shunday ota-onalar ham bor ekan) foydalanishdi. Hikoyada u onasi tomonidan padarkushlikda ayblanadiyu, hikoya so'ngida beaybligi isbotlanadi, albatta. Shu muddat ichida uning ruhiy holatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u haqiqatan ham o'z nomiga monanad ish tutadi, hech qachon ota-onasini tashlab qo'ymaydi:

“Unutolmaydi, biroq... bu xo'rliklar uchun marhum otasini ham, ro'parasida farqsiz o'tirgan onasini ham ayplash niyati yo'q. Yomon bo'lsa ham ota-onasi

borligidan rozi edi. Ota-onasini biron marta ham ko‘rmagan tengdoshlarining alamli ko‘z yoshlariiga bolalar uyida guvoh bo‘lgan. U voyaga yetgach, ota-onasi bag‘riga qaytishini bilardi. “Mayxo‘r, bemehr bo‘lsalar ham borliklari yaxshi”, deb hisoblardi. U bolalar esa... yolg‘izlik sahrosida ulg‘ayib, yana yolg‘izlik bag‘riga otilajaklaridan qayg‘uda edilar.”

Bundan tashqari hikoyada Sohibning ammasi Komilova obrazi ham uchraydi. Bu qahramonning familiya orqali berilishiga sabab: u sud zalidagi jarayondan kelib chiqib shunday atalgan. Demak, ijodkor qahramonni nomlashda muhitni ham inobatga olgan. Bu esa asarning hayot bilan uzviy bog‘liqlik kasb etishini ko‘rsatadi, albatta:

“- Guvoh Komilova keldimi? –deb so‘radi kotibadan.”

Hikoyada ikki qaramon laqab bilan tilga olingan. Jamiyatda o‘z nomi bilan emas, laqabi bilan yashash, asosan, salbiylik kasb etadi. Yozuvchi ham mana shu hayotiylikni ko‘rsatish uchun bo‘lsa kerak bu qahramonlarni laqab orqali nomlashni ma’qul ko‘rgan:

“Qaysarligi oqibatida Sohib yana ikki marta kaltaklanib, og‘riq azobidan ihrab o‘tirganda unga ”Qorakuya” laqabli odam yaqinlashdi...”

“Sohib gaplashgisi kelmay, yuzini burgan edi, ”Qorakuya” temirdek barmoqlari bilan uning iyagini ushlab, o‘ziga qaratdi.”

“- Ha... To‘g‘ri, Minullinni tanimasligingiz mumkin, lekin ”Qozon” deganni bilishingizni rad etolmasangiz kerak.”

Jamiyatda laqablar shaxs nomini siqib chiqarish holatlari ham uchraydi. Bunda laqab o‘sha shaxsni ko‘rsatuvchi antroponimga aylanadi, albatta. O‘zi mustaqil, kishi ismisiz ham, o‘sha shaxsni ko‘rsata oladi. Bu holatni asarda o‘rinli qo‘llash esa ijodkorning o‘ziga xos mahoratini belgilaydi. Asar tilini jonli xalq tili bilan yaqinlashtiradi, milliy xalqona ruh baxsh etadi.

Ijodkor asardagi boshqa barcha qahramonlarni ularning jamiyatda bajargan vazifasi bilan tilga oladi. Masalan: kotiba, himoyachi, prokuror, qo‘shni, ayol, ota, ona, hakam, guvoh, marhum kabi. Bu birliklar, nazarimizda, shaxslarga ishora

qilayotgan birliklar bo‘lishi ham mumkin. Bu haqida ishning oldingi o‘rinlarida to‘xtalib o‘tganmiz.

Adibning “Qarg‘ish” nomli hikoyasida ham antroponimlar ma’lum bir uslubiy vazifa bajargan, albatta.

Masalan, bosh obrazlardan biri Yo‘ldosh ismli bola. U oilaning to‘ng‘ich farzandi, otasi va ukalariga mehribon aka. Bu ismning ma’nosи o‘zbekcha otasi yoki akalariga esh, hamroh bo‘lib yursin degan ma’noni bildirdi. Jamiyatda shunday shaxslar borki, ular ota-onalari orzu-havas bilan qo‘ygan ismga munosib yashaydilar. Asarda bu obraz orqali yuqoridagi ma’no ifodalangan:

“O‘ylay-o‘ylay, jodudan qutulish chorasini topdi: yarim kechada turdi-da, “O‘lsam o‘zim o‘lib qo‘ya qolay, ukalarimga tegmasin”, degan qarorda uyiga qarab bordi.”

“Yo‘ldosh onasiga ko‘maklashishni yoqtirardi. Ayrim ishlarga qo‘li ham kelib qolgandi.”

Shuningdek, jamiyatda ismiga nomunosib shaxslar ham uchraydi, albatta. Yozuvchi Rahima obrazi orqali esa shuni ko‘rsatadi va bunga o‘zi ham alohida urg‘u beradi:

“Bu xotinning ismi jismiga, ayniqsa, ruhiga mos emas, “Rahima” atalgani bilan qalbida rahm-shavqat ozroq edi.”

Yo‘ldoshning otasi Ergash. Bu ism ham qisman o‘z ma’nosidan kelib chiqib, asarda o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lmagan, boshqalar fikriga ergashib ish tutadigan obraz sifatida tasvirlangan. Hattoki ayolining vafotidan ikki oy o‘tar-o‘tmas qarindoshlarining gapiga ergashib bir ayolga uylanadi, so‘ng uning gapi bilan bolalarini ham xolasiga berib yuboradi. Bu ism asarda o‘zidagi salbiylikni ko‘rsatgan. Aslida farzandiga Ergash ismini qo‘yayotgan ota-onasi uni yaxshilarga, yaxshilikka ergashishini ozu qiladi. Ijodkor esa uning boshqa ma’no qirrasidan foydalanim o‘zbek tilining so‘z ma’nolari naqadar serqirra va boy ekanligini yana bir bor ko‘rsatib bergen.

Adib chet elga borgan Yo‘ldosh tanishgan qahramonni Mister Belden nomi bilan tilga oladi. Bu ismdan ijodkor o‘sha muhitni kitobxon ko‘z oldida jonli

gavdalantirish uchun foydalangan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, antroponimlar asarning hayotiyligini ta'minlovchi unsurlardan biri hisoblanadi. Ular yozuvchi manerasidagi o'ziga xos ideal sanaladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Tohir Malik hikoyalari orqali asarda antroponimlar shaxs va jamiyat munosabatlarini ko'rsatuvchi detal bo'la olishi mumkin. Ulardan o'rinni foydalanish asar tilini jonli xalq tili bilan yaqinlashtiradi, ularni milliylikni ko'rsatuvchi quroq sifatida baholashimiz mumkin.

## **II.2. Normurod Norqobilov hikoyalarida antroponimlarning qo'llanilishi.**

Normurod Norqobilov 1953 yil 7-iyulda Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanidagi Qishliq qishlog'ida tug'ilgan. Normurod Norqobilov Hamid Olimjon nomidagi o'rta maktabni 1970-yilda tugallagan. So'ngira 1976-1982-yillarda Toshkent Davlat universitetining jurnalistika fakultetida o'qigan.

Yozuvchi bo'lmoq uchun hayotni o'rganmoq kerak, degan shiorga amal qilib, zavod va fabrikalarda slesar, temir yo'l depolarida vagon tuzatuvchi, stantsiyalarda yuk tushiruvchi bo'lib ishlagan va turli toifadagi kishilar bilan yaqin muloqotda bo'lib, ularning xarakter xususiyatlarini, dunyoqarashlarini o'rgangan. Ozmi-ko'pmi bu o'rganganlari asarlariga ko'chgan. Oqibatda hayvonot dunyosiga oid bir qancha asarlari yuzaga keldi. «Changalzor iti», «Oqbo'yin», «Tog' odami», «Paxmoq», «Ovul oralagan bo'ri» kabi qissa va hikoyalari shular jumlasidan.

Baxt nima? Tiriklik-chi? Tiriklikning tirdagi nima? Baxtsizlikning qanday shakl-shamoyillari bo'ladi? Umuman olganda, baxtsizlikning rangi bormikan? Inson bolasi shu ikki qutb o'rtasida sarson yashab, biridan ikkinchisiga intilarkan, hamisha o'zligini izlaydi. O'sha qidirgani mehr emasmikan, o'zlik emasmikan? Bu kabi savollarga Normurod Norqobilovning asarlaridan javob toppish mumkin. Shu paytgacha yozuvchi o'ndan oshiq kitob chop ettirgan: «Unutilgan qo'shiq», «Zangori ko'l», «Yuzma-yuz», «Temur g'ori», «Paxmoq», «Arazchi chumchuq», «Sariqgul», «Jo'shqin daryo», «Bekatdagi oq uycha» shular jumlasidan.

Yozuvchi Normurod Norqobilov asarlari o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz tili darsliklariga kiritilgan, bir necha tillarga tarjima qilingan. U «Shuhrat» medali bilan mukofotlangan. [76]

Normurod Norqobilovning “Olim o‘g‘il” hikoyasini tahlil qilish jarayonida uning antroponimlarni qo‘llashdagi uslubi boshqa ijodkorlardagi yo‘nalishdan tubdan farq qilishining guvohi bo‘ldik. Tohir Malik va N. Norqobilov asarlarining tilida antroponimlarni qo‘llash bir-birini itaruvchi ikki qarama-qarshilikni hosil qiladi. Ammo nima bo‘lganda ham bu har bir ijodkorning o‘ziga xos yo‘nalishi ekanligini barchamiz to‘g‘ri baholashimiz kerak. Yuqorida nomi tilga olingan hikoyasida adib o‘n sakkizta antroponimni qo‘llagan. Ijodkor asardagi barcha qahramonlarni ismlar bilan tilga olgan, ammo asarning bosh qahramonini ism bilan emas, erishgan haqiqiy olimligi orqali olim o‘g‘il deya atagan. Asarning hayotiyligi ham shunda. Haqiqiy, chin ilm sohibiga nom kerak emas, unga ilm kerak xolos. Buni asardagi quyidagi parchadan ham bilishimiz mumkin:

“Shovqinni eshitib, o‘g‘il sekin boshini ko‘tardi. Ko‘zi devor ortida harakatlanayotgan somon g‘aramiga tusharkan, olgan bilimi bu dargohda sariq chaqalik qimmatga ega emasligini favqulodda anglab yetganday, asta yulqinib darvoza tomon yurdi.”

Olim o‘g‘ilning otasining ismi Shayman: (Shayman - arabcha, din sardori degan ma’noni bildiradi). Bu ism aslida Shayx Muhammad ismining qisqargani, bizningcha esa, buzilgan shakli. U asarda sardorlarga xos viqor bilan tasvirlangan: “O‘g‘lini ko‘rgach, odatiga xos jiddiy tarzda kampiriga im qoqdi.”, “Hamisha o‘g‘li kelib ko‘rishmoqqa qo‘l cho‘zgandan keyingina o‘rnidan turib, bag‘riga bosardi uni. Ortiqcha hayajon-u yalab yulqashni yomon ko‘radi u.”.

Hikoyada Shayman cholning bir qancha ulfatlarining tasviriga e’tibor beradigan bo‘lsak, ba’zan ko‘rinish tasviri, ba’zan esa gap-so‘zlari bilan o‘z nomi bilan uyg‘unlik kasb eta olgan. Mana shunday epizodlardan biri – O‘roq chol.

Bilamizki, O‘roq ismi o‘zbekcha ismlar sirasiga kiradi. Bu ism ekin o‘rog‘i paytida tug‘ilgan bola yoki o‘roqdek o‘tkir, keskin, uzoq umrli bo‘lsin yoxud baxtiyor, shodon bola ma’nolarini ifodalaydi.

Bizning fikrimizcha, adib bu qahramonning ismining ma’nosidan kelib chiqib emas, shakl mutanosibligi uchun tanlagen: “Ammo shu payt O‘roq chol gapirib qoldi. - Ulingiz olim bo‘pti deb eshitdik, - dedi qurtdek boshini u tomon burib. – Qanday chikin olim bo‘pti, a, Shaymanvoy”.

Bundan tashqari hikoyadagi hayotiylikka yana bir misol tariqasida Sala cho‘tir epizodining nomini sharhlashimiz mumkin. Bu antropom arabcha, maqtov, olqish, shukrona, salavot degan ma’noni bildiradi. Bu ism aslida Salovat shaklida bo‘ladi. Ammo hikoyada xalqchillik va tabiiylikni ta’minalash uchun u Sala shaklida qo‘llangan. U barcha o‘rinlarda Sala cho‘tir deb tilga olinadi. Shundan bilishimiz mumkinki, uning yuzi cho‘tir. U ismi jismiga munosib bo‘limgan epizod, shuning uchun uni hamma Sala cho‘tir deb ataydi: “Baytalday tirsillagan narsa, Sala cho‘tirni pisand qilarmidi.”

Asardagi mana shu kabi ismi emas, laqabi ma’lum bir uslubiy vazifa bajaruvchi epizodlar hikoyaning xalqona tilda yozilganligini, undagi milliylikni ko‘rsatishda yordam beruvchi bir vosita ekanligini yaqqol isbot qiladi:

“Hafta-o‘n kun shu sozda qimirlasa, bu yoqdan **Vali guppi** ozgina himmat qilsa, yetib qolar shu bilan.”

“- Shaymanvoy chatoq, -dedi xari chetida ilinib o‘tirgan **Olim pakana**. Shayman chol uning pachoq jussasiga boqarkan, O‘roq cholni haq deb bildi.”  
“**Olim pakana** kichik jussasini bejo tebratib, qarshi gap qilmoqchi edi, Qudrat chol vaqtida oraga suqildi.”

“- Xuddi otasining o‘zi-ya. **Soli o‘pkayam** shunaqa hovliqma edi. O‘pkaligi tufayli otdan yiqilib o‘ldi-da.”

“Ko‘cha boshida ikki qop somon yuklangan eshagini oldiga solib kelayotgan **Haydar ko‘sса** ko‘rindi.”

“- Shayman cholning uli olim bo‘pti, olim degani pulning isiga yotolmaydigan xalq bo‘ladi, shundayakan, chol qalindan qizg‘anmasin deb, ertalab ukasi **Salom ko‘sadan** ayttirib yuboribdi.”

“Ana shu **Qobul shapka** hech qayerda o‘qimagan, lekin tayog‘ini bir silkitsa, hovlisiga somoniyam, xashagiyam tushib turibdi.”

“Otasi **Uzoq guppi** somon tashvishi neligini bilmaydi.”

“O‘qishga kelsak, anovu **Eshqul cho‘loqning** bolasiyam o‘qigan-da.”

Bu epizodlarda antroponimik birliklarning qo‘llanilishi o‘ziga xos uslubiy vazifa bajaradi, ya’ni qahramon kamchilagini ko‘rsatish, xarakterini ochish, jamiyatdagi o‘rnini bildirish, xalqona ruh baxsh etirish, qahramonni boshqa shu ismli qahramondan ajratish, obrazni individuallashtirish kabilar.

Hikoyadagi boshqa epizodlarning nomlari ham asarning xalqona, milliy ruhda yozilganligini, ulardan o‘rinli foydalanish esa asarda ifodalilik va ta’sirchanlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Masalan, yozuvchi hikoyasidagi quyidagi antroponimlardan foydalanish fikrimiz isboti sanaladi:

Sadir – arabcha, baland martabali, mansabdor boshliq, diniy rahnamo degani. Diniy rahnamo kishi, avvalambor, birovga ozor bermaydigan, samimiy kishi bo‘lishi lozim. Xuddi mana shu xususiyat bu epizodda namoyon bo‘lgan, yozuvchi bu jihatni ko‘rsatishga alohida e’tibor bergen:

“...bir chekkada musichaday beozorgina o‘tirgan Sadir chol...”

Bu o`rinda ijodkor ismiga monand bo`lishi lozimligiga urg`u bermoqchi bo`lgandir, balki. Chunki hayotda barcha diniy rahnamo kishilarni ham yuqoridagi fikrga munosib topavermaymiz. Aytishimiz mumkinki, badiiy asar bu – yozuvchining o`y-xayollari bilan qorishgan hayot manzarasi. Shunday ekan, yozuvchi nomlagan qahramonni har jihatdan tahlil qilish va munosabat bildirish, bizningcha, nisbiy holat kasb etadi.

Qodir – arabcha, qudratli, kuchli, barcha narsaga layoqatli. Bu nom Allohning sifatlaridan biridir. Hikoyadagi bu obrazning ovozida xuddi shu xususiyatlarni kuzatishimiz mumkin:

“-Ana eshitdingizmi? – Qodir cholning ovozi davra uzra qalqigan umumxitobni bosib tushdi.”

Demak, inson ismidagi ma’no-mazmun uning faqat tashqi ko‘rinishidagina emas, qaysidir bir muayyan jihatida ham namoyon bo‘lishi mumkin ekan. Badiiy asarda yozuvchi mana shu kabi fikr-mulohazalarni ham inobatga olgan holda o‘z qahramonlarini nomlaydi. Va bunda antroponimlar ham asar tilini o‘rganishda

ma'lum bir vazifa bajarishi mumkinligiga ishora qiladi. Hikoya tili tahliliga antroponimik soha jihatidan yondashadigan bo'lsak, asar chin ma'noda milliy ruhdaligi, sodda va tushunarligi, tasviriylikka egaligi, xalqchilligi bilan istiqlol davri hikoyalari ichida munosib o'z o'rniga ega asar deyishimiz mumkin, alabatta.

Ijodkorning "Ayriliq quvonchi" hikoyasidagi antroponimlarning qo'llanilishiga to'xtaladigan bo'lsak, bu hikoyada obrazlarni nomlashda Norboy, Bozor, Oysanam, Muso kabi nomlardan foydalanilgan. Shulardan Norboy antroponimiga E.Begmatovning "O'zbek ismlari" kitobida shunday izoh beriladi:

"Badanida qizil xoli yoki qizillik belgisi bilan tug'ilgan bola yoxud (bir o'rakchli tuyadek) kuchli, qudratli". Shakllari: Norbek, Norboy, Norjon, Norxon. Bizningcha, bu ism o'zidagi kuchli, qudratli sifatlarini obraz orqali ko'rsata olgan. Buni quyidagi o'rirlarda ko'rishimiz mumkin:

"Unga qiyin, tengqurlari yo'q, boyo'g'liday bo'zrayib bir o'zi qoldi."

Demak, Norboy chol tengqurlariga nisbatan ko'p umr ko'radi. Ma'lumki, hayotda jismonan va ruhan kuchli insonlargina uzoq umr ko'radi. Ijodkor obrazning bu chizgilariga antroponim orqali ishora qilyapti.

Ma'lumki, o'zbek xalqi azal-azaldan bolajon xalq. Allohdan rizq-nasiba qatorida farzandlar va ularning sog'liqlarini so'raydi. Shunday ekan, Norboy chol ham Allohdan farzand so'raydi va uning ismini Bozor deb qo'yadi. Bu ism forstojikcha, bozor kuni tug'ilgan bola yoki uyimiz bozor kabi bolalarga to'lsin degani. Demak, bu obrazni nomlash orqali o'zbek xalqi mentaletetiga xos jihatlar va milliylik ko'rsatib berilgan deyishimiz mumkin. Bundan tashqari, bozordagi o'z ishining usta kishilari deganimizda ko'z oldimizda raqobatlarga chidamli, kuchqudratli, chaqqon va o'z ishiga puxta, yuz-ko'zida jiddiylik aks etgan insonlar gavdalaniadi. Bu qahramon ham tashqi ko'rinish jihatidan mana shunday tasvirlanadi:

"Ba'zida do'nglikka to'rsillab-qursillab Bozor tog'asi chiqib keladi."

"Nega deganda, Bozor tog'asi jahldor odam."

“Ota faqat menga kerakmi, a? – deya baqiradi qo‘llarini paxsa qilib. – Ana, qiziyam qarasin, yasanib-tusanib, to‘yma-to‘y yurguncha! Axir bir yangang qay biriga bo‘sin, ro‘zg‘orga qarasimni, yo... Qiynalib ketdi-ku u sho‘rlik!”

Norboy cholning ikkinchi farzandi Muso. Bu ism yahudiylar payg‘ambary Mashe nomidan olingan bo‘lib, ma’nosi turlicha izohlanadi: [16]

- 1) qadimiy misrcha: bola, chaqaloq;
- 2) qadimgi yahudiycha: suvdan tortib chiqarib olinga;
- 3) arabcha: ustara, poki.

Shakllari: Musobek, Musoboy, Musojon, Musoxon. Asarda bu ism Muso shaklida, qo‘llanilgan. Ma’lumki, payg‘ambarlarga xos xususiyat bu ularning kamtarligi, soddaligi, xullas, ijobiy xislatlarga egaligidadir. Ota-oni esa farzandining shu kabi mo‘tabar zotlarning nomlarini qo‘yadi. Asar qahramoni ham xuddi shunday fazilatlarga ega shaxs sifatida tasvirlanadi: “Muso avvalgidan ko‘ra serqatnov, gohida o‘zidek kamsuqum, xushro‘ygina ayoli bilan keladi”. “Muso sodda, mehri tovlanib pochchasining yelkasidan quchdi. Bu g‘idi-bidilarning bir chetida aslida pochchasi turganini xayoliga ham keltirmaydi. Yomonqul tabiatan pismiq odam.”

Hikoyadagi Norboy cholning qizi Oysanam, antroponimning izohiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu nom o‘zbekcha-arabcha ismlar turkumiga mansub bo‘lib, oydek go‘zal, zebo qiz degan ma’nolarni bildiradi. Ijodkorning bu qahramoni ismi jismi monand bo‘lmagan personajlardan biri sifatida tasvirlangan. Bu holatni asardagi quyidagi o‘rinlar bilan isbotlashimiz mumkin: “- Qarasin, beliga tosh tegmagan o‘sha Oysanam semiz... Enasi so‘zga chechan ayol, gap deganlarini tandir boshidagi o‘tinday qalashtirib tashlaydi”. “Uning qarshisida ammasining tajangtob qiyofasi namoyon bo‘ladi.”

Ammo shu bilan birga antroponim ma’nosi personajdagi boshqa jihatlarda namoyon bo‘lganligini ham ko‘rishimiz mumkin: “Shu qiz tug‘ilganida amma sifatida qanchalik quvonmagandi u. Tuyg‘ulari marvarid yanglig‘ go‘zal va serjilo edi”. Hayotda ba’zan ism ma’nosi xarakterda, tashqi ko‘rinishda, kiyinishda yoxud so‘zlashda namoyon bo‘luvchi holatlarni ham uchratishimiz mumkin. Yuqoridagi obrazda ham fikrlarimiz o‘z isbotini topgan, albatta.

Hikoyada tilga olingen Yomonqul ismi E.Begmatovning “O‘zbek ismlari” kitobida quyidagicha izohlanadi: Yomonqul (o‘zbekcha) - chaqaloqni yomon ko‘zlardan asrash uchun unga ko‘z tegmasin deb shunday ism beriladi. Ammo asarda bu antroponim qahramonida o‘zidagi yomon sifatini ko‘rsatgandek, nazarimizda.

“Muso sodda, mehri tovlanib pochchasining yelkasidan quchadi. Bu g‘idi-bidilarning bir chetida aslida pochchasi turganini xayoliga ham keltirmaydi. Yomonqul tabiatan pismiq odam.”

Demak, hayotda ba’zi yaxshi niyat bilan qo‘yilgan ismlar kishi taqdiriga o‘zining boshqa jihatlari, ma’nolari bilan ham ta’sir qilishi mumkin ekan. Bu kabi ismlarga quyidagi ismlarni ham misol qilishimiz mumkin: Ergash ismli bola ota-onasi xohlaganidek yaxshilarga emas, yomonlarga ergashishi yoxud Yo‘ldosh ismli bolaning og‘a-inilariga emas, yomon do‘sstlariga yo‘ldosh bo‘lishi kabilar.

Bulardan tashqari, hikoyada Sodiq, Mamarayim kabi epizodik obrazlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Bu antroponimlarning izohi quyidagicha:

Sodiq arabcha, sadoqatli, rostgo‘y, chin do‘sst degan ma’nolarni ifodalaydi.

Mamarayim ismi esa aslida Muhammadrahim bo‘lib, rahmdil, mehribon, muruvvatli degan ma’noni bildiradi. [16]

Fikrimizcha, ijodkor xalqchil ifodani asarda ko‘rsatib berish uchun ham antroponimning jamiyatda qo‘llanilishidan kelib chiqib ismni shu shaklda qo‘llagan. Ammo, bizning nazdimizda, xalq tomonidan ismlarni bu shaklda qo‘llash ularning qisqarib, o‘z mohiyatini yo‘qotishiga sabab bo‘luvchi, o‘zbek ismlari fondiga sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri sanaladi.

Hikoyanavis Normurod Norqobilovning insoniyat uchun sadoqatli do‘sst bo‘lmish it haqidagi hikoyasida qo‘llanilgan antroponimlar tahlili haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, unda Karim, Sodiq, Rasul, Xidir kabi ismlar qo‘llanilgan.

Karim arabcha, karamli, saxiy, saxovat degan ma’noni bildiradi. Asarda bu obraz quyidagicha tasvirlanadi: “Qishda bir chaksa qorni birovga ravo ko‘rmaydigan shunday bir odam qo‘y va’da qilyaptimi, demak, bu kuchukda bir gap bor.” Biz hayotda ba’zan ismiga nomunosib kishilarni ham uchratishimiz

mumkin. Ana shunday kishilar tasvirini berish orqali ijodkor obraz va uning ismi o‘rtasidagi ziddiyatni ko‘rsatib bergen. Bu kabi holatlardan asarda hayotiylik unsurlarini ko‘rsatish uchun foydalaniladi.

Asarda bosh obrazlar itlar bo‘lganligi bois boshqa epizodik obrazlarning ismlaridan shunchaki nomlash uchun foydalanilgan degan xulosaga kelindi. Bu obrazlar hikoyada faqat bir necha o‘rindagina tilga olingan xolos: “Gohida shu ish ustida uy egasining o‘rtancha o‘g‘li Rasul kelib qoladi”. Rasul ismi arabcha bo‘lib, Alloh tomonidan yuborilgan, Allohning elchisi degan ma’noni bildiradi.

Mana shunday epizodlardan biri Xidir: ”Otmagan taqdirdayam baribir Xidir xira otib ketadi. “Bu antroponimning ma’nosи esa E.Begmatovning ”O‘zbek ismlari” kitobida quyidagicha izohlanadi: Xidir arabcha so‘z bo‘lib, aynan ma’nosи yashil rangli deyiladi. Shuningdek, bu antroponim pokiza, pardali (niqobli) ma’nolarini ham bildiradi.

Demak, adib hikoyalarida antroponimlardan nafaqat obrazning xarakter-xususiyatini ochib berish uchun, balki shunchaki uni nomlash uchun ham foydalangan ekan. To`g`ri, ijodkorlar doim ham ismdan qandaydir uslubiy vosita uchun emas, balki nominativ vazifa, ya`ni qahramonni atash uchun ham foydalanishi mumkin.

### **III.3. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida antroponimik shakllar.**

«Yozuvchi millat ruhidan kelib chiqmasa, bo‘lmas ekan»,- degan o‘z iqrornomasi uning butun ijodini, asarlarini, shaxs sifatidagi tabiatini tutashtirib turadi.

Shukur Xolmirzayev asarlari hayotda, inson qalbida yechilmay yotgan muamolarning badiiy tahliliga qaratilgan. Yozuvchi qahramonlari asar g‘oyasini, badiiy topilmalarni kitobxon og‘ziga chaynab solmaydi. Noshud, hayotda to‘g‘ri yo‘l topolmagan, beo‘xshov yoki razil qahramonlarini asar nihoyasiga borib tugatmaydi, yaxshilamaydi. Ularni o‘zining badiiy niyati amalga oshirilgan darajada hayotdagiday qoldirib, kitobxon hukmiga havola etadi.

Bu uslub asar va qahramon haqida mushohada yuritish uchun o‘quvchiga keng imkoniyat qoldiradi.

Adib asarlari qahramonlari aksari uning o‘zi tug‘ilib o‘sgan tuproq – Surxon diyorining mehnatkashlaridir. Asar voqealari sodir bo‘ladigan manzil ham ko‘pincha shu voha bo‘ladi. Shu voha qahramonlari timsoli misolida adib o‘zbek xalqining, o‘zbek tuprog‘ining o‘ziga xosliklarini tajassum etadi.

Yozuvchi asar qahramonlarini oqlamaydi ham, qoralamaydi ham. Asosiy e’tiborni ularning qalbi, ma’naviyati, do’stlarga, yangi hayotga o‘zgarishlarga munosabatini ko‘rsatishga qaratadi va hukm chiqarishni o‘ziga qoldiradi.

Adib asarlarining g‘oyalari bir-birini to‘ldirib boradi, tasvirlangan qahramonlar harakatidan, tabiatidan chiqarilgan xulosalar bir-birini yanada boyitadi, milliy o‘zligimizning turli qirralarini alohida xarakterlar orqali tasvirlab, xalq qiyofasidagi yaxlit qiyofaning turli jihatlarini ochib beradi.

Yozuvchi asarlari tasvirida tirikchilik qiyinchiliklari bilangina o‘ralashib qolmaydi, ma’naviyat masalalariga ham alohida e’tiborni qaratadi. Zamon talotumlari ma’naviyatimiz mustahkamligi va mustaqilligida jiddiy salbiy iz qoldirayotganiga ishora qiladi. Bunga, bir jihatdan, avvalambor, jamiyat norasoliklari sabab, qolaversa, ikkinchi jihatdan, bu hol ko‘proq irodasi sust kishilarda namoyon bo‘lmoqda. Irodasi mustahkam kishilarning esa irodasini sinovdan, chig‘iriqdan o‘tkazib, ma’naviyatini yanada mustahkamlamoqda, zamon yangiliklari ta’sirida yanada boyitmoqda.

Mustaqillik davri kishisi qalbida, dunyoqarashida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni, ba’zan iqtisodiy sharoitlarning shaxslararo va jamiyat bilan munosabatlarga ko‘rsatayotgan ta’sirini, bir so‘z bilan aytganda, yangilanayotgan tabiatli zamondosh, yurtdosh sajiyasini, siymosini ko‘rsatish bu yo‘ldagi qiyinchiliklarni, ziddiyatlarni, yo‘qotish va topishlarni aks ettirish adabiyotimiz oldidagi muhim vazifalardan sanaladi. Shukur Xolmirzayevning ba’zi romanlari mana shu muammoga bag‘ishlangan.

Adib rang-barang janrlarda ijod etadi. «Qora kamar» uning ana shu rang-baranglikni tasdiq etuvchi asari bo‘lib, XXasrning oxirlaridagi o‘zbek adabiyotining, dramaturgiyasining sara namunalaridan biri hisoblanadi.

Adib ijodida bayon emas, ko‘rsatish, e’tirof emas, tasvirlash san’atining chiniqqanligi shu tariqa dramaturgiyada o‘zining ajoyib samaralarini berdi. Asar yozilgan vaqtda, orzu qilingan istiqlolning qaldirg‘ochlarini ko‘rsatishda muallif badiiy tahlil va tasvirning retrospektiv tamoyiliga murojaat etgan. Bu kunning yog‘dularini tarixga murojaat orqali ochib bergen.

Shukur Xolmirzayevning «Qil ko‘prik», «So‘nggi bekat», «Yo‘lovchi», «Olabo‘ji», «Dinozavr» romanlari turli mavzu va muammolarga bag‘ishlangan. «So‘nggi bekat» adibning roman janridagi dastlabki tajribasi bo‘lishiga qaramay, sho‘ro davrining so‘nggi bosqichidagi kamchiliklarni zamondoshlar qiyofasidagi norasoliklarni keskin fosh etishi bilan ajralib turadi. «Bekat» xo‘jaligida yashab, mehnat qilayotgan turli toifadagi kishilar xarakteri, harakati misolida adib, umuman, jamiyatni qattiq qoraladi. Bu, mohiyat e’tibori bilan, mazkur davr jamiyatning umuman so‘nggi bekti bo‘lsa nima qilarkin, degan badiiy fikrga go‘yo ishoradek bo‘lgan. Taxminan o‘n besh yil o‘tgach bu badiiy «karomat» o‘zining tasdig‘ini topgan.

1987-yil adib «Yo‘lovchi» romanini yaratgan. Ayniqsa, shakli, kompozitsiyasi jihatdan yangicha izlanishlari mo‘l bo‘lgan bu asar ko‘proq monolog va dialoglar asosiga qurilgan. Yozuvchi qahramonlari xarakterini, asosan, shu yo‘sinda ochishga harakat qiladi.

Oliy ma’lumothi bo‘lish yaxshi. Lekin shunchaki, bilimsiz, jamiyatga nafi tegmaydigan, o‘zini o‘ylashdan nariga o‘tmaydigan xudbin oliy ma’lumotlining nima keregi bor? Undan ko‘ra noilojlik tufayli nainki oliy ma’lumot, balki, hatto, to‘liq o‘rta ma’lumot ham ololmay qolgan, biroq mehnatsevar, halol, el va yurtga qayishuvchi, do‘stga sadoqatli (bolalikda ari chaqqan o‘rtog‘ining azoblanayotganini ko‘rib, dardini biroz yengillatay deb, o‘zini ham ariga chaqtirganini eslang: yozuvchi kichik detal orqali xarakter yaratishga usta) kishi

ko‘p bor afzal emasmi? Yozuvchi xuddi shu fazilatlarni romanning bosh qahramoni Bekdavlat qiyofasida aks ettirgan.

«Olabo‘ji» romanida yozuvchi mustaqillik arafalaridagi sho‘ro jamiyatini tanazzulga yetaklagan jarayonlarning ma’naviy va axloqiy asoslarini ko‘rsatgan. Asarda Ulton va Bahor singari yoshlar taqdirini chil parchin qilishda, jamiyatni rasvo yo‘lga yetaklashda To‘qliboy Qo‘chqorov singari kimsan, firqaning manaman degan rahbarlari bosh-qosh bo‘lgani ochib tashlangan.

«Qil ko‘prik » romanini yozish uchun adib salkam besh yil sarflagan. Asarda «qizil» larning istiqlolchilarga (davr tili bilan aytganda «bosmachi»larga) qarshi olib brogan kurashi va ularni mahv etish jarayonlari tasvirlangan. Kitob ham sho‘rolar hukm surgan davrda yozilgani bois, firqaviy mafkuraga mos kelmaydigan biror gapni aytish, g‘oyani ilgari surish amri mahol bo‘lgan. Shu ma’noda, romanda sho‘ro maqsadlarini ko‘rsatuvchi manzaralar, sahifalar oz emas va bu tabiiydir. Lekin yozuvchining asl maqsadi bu emas. Uning qalbida, vujudida milliy istiqlolchilarga, vatanparvarlarga mehri, xayrixohligi tug‘yon urgan. O‘ziga xos usulda, sirli shakllarda bu niyatni «Qil ko‘prik» da amalga oshirish uning bosh muddaosi bo‘lgan [76].

Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor ijodida namoyon bo‘lgan XX asr o‘zbek hikoyachiligi an’analarini Shukur Xolmirzayev shu asrning so‘nggi choragida yanada boyitdi. O‘zbek hikoyachiligini yangi bosqichga ko‘targan uning qator asarlari bu janrning keng miqyosdagi manaman degan namunalari bilan haqli ravishda bo‘ylasha oladi.

Adib hikoyalarida siyqasi chiqqan xarakterlar, quruq nasihatgo‘ylik, shablon iboralarni deyarli uchratmaymiz. U doim yangi obrazlar yaratishga intiladi. Asarning kompozitsion qurilishida bir-birini takrorlamaydigan yangiliklar topishga urinadi. Bu borada tajribalar o‘tkazishdan cho‘chimaydi va ko‘pincha, muvaffaqiyatlarga erishadi. O‘zbek kishisi orzu- armonlarining , aksar hollarda, yashirin iztiroblarining yoritilmagan qirralarini, ruhiyatidagi evrilishlarini qalamga oladi [75].

Bu qahramonlar o‘zga yozuvchilarning qahramonlariga o‘xshamagan: goh do‘lvor, goh to‘pori, goh dag‘al va chapani, goh kichkinagina bir muhit vakili. Lekin barchasining ichki dunyosi o‘ziga xos, ruhan teran, insonparvar, e’tiqoddan qaytmaydigan, shularga munosib ravishda mulohaza yuritadigan jonli va hayotiy kishilardir. Bu qahramonlar o‘zligini, millatini, yurt tuprog‘i-yu udumini, dini va diyonatini har narsadan ustun qo‘yadilar. Adalat uchun, haqiqat uchun kurashadilar. Lekin biror qahramon bu maqsadda hech qachon balandparvozlik qilmaydi, ayyuhannos solmaydi. Ular tashqaridan emas, ko‘pincha, ichdan jozibali, istarali, mehr tortar bo‘ladi.

Shukur Xolmirzayevning «Bodom qishda gulladi», «Tabassum», «O‘zbeklar», «Qadimda bo‘lgan ekan», «Quyoshku falakda kezib yuribdi», «Ko‘k dengiz» «Navro‘z», «Xumor» singari hikoyalari so‘nggi bosqich o‘zbek adabiyotining bu janrdagi ibratli namunalaridir.

«Tabassum» (1984)ga nazar tashlaylik. Jalil ota sho‘ro tuzumi uchun astoydil qizmat qilgan, urush qatnashchisi. Keksayganda dardga chalinib, yotib qolar ekan hayoti birma-bir ko‘z oldidan o‘tadi. Yigitligida, qizillarning faol jangchisi ekanida quyun qo‘rboshini bandi etdi. Uning bu yo‘lga din uchun, xalq uchun kirganman, degan so‘zlari hamon qulog‘i ostida. Shunga qaramay, essiz, unga o‘limni ravo ko‘rganlar qatorida turdi-ya.

Hayot bilan vidolashuv onlari yaqinlashganda Jalil otaning nabirasiga bir vaqtlar qizillarga fidoyi qizmat qilgan, qo‘rboshi boshiga yetganlarning faoli, qo‘sh-qo‘sh nishonlar olgan Mo‘min cholning nabirasidansovchi keladi. Jalil ota bu nishonlar egasining qanday fe’l-atvori-yu sadoqati evaziga kelganini yaxshi bilardi. Shu bois, qalbida chuqur iztirob: u xonadonga nabirasini bergisi yo‘q. Lekin iloji qancha. Hatto o‘limim bu to‘yni qoldirishi mukin edi, degan xayollarga boradi. Qazosi yetganda esa uning uning yuzida qotib qolgan tabassumni ko‘ramiz.

Bu nima? Jalil otaning o‘z hayotidagi ayrim holatlar, xususan, qo‘rboshiga o‘xshaganlarning umriga zomin bo‘lgani uchun afsusimi? Mo‘min cholga o‘xshaganlarning ko‘pisini soxta aldoq nishonlar bilan to‘ldirgan jamiyat ustidan kulib ketdimikin, balki? Ehtimol, o‘zi istamagan «o‘sha» noma’lum to‘yni loaql

o‘limi bilan qoldirib ketayotganidan shukronalik b elgisidir. Xulosa chiqarishni yozuvchi kitobxonning o‘ziga qoldiradi.

Nima bo‘lganda ham, Jalil otaning umr shomida din uchun, xalq uchun jonini bergan Quyun qo‘rboshiga xayrixohligi o‘z ifodasini topgan Shukur Xolmirzayevning qarashlari, nuqtayi nazari zamirida uning millatparvar sifatidagi o‘ziga xos qiyofasi yotadi deyish mumkin. Sho‘ro jamiyati hali mustahkam turgan bir davrda bunday fikrni, g‘oyani badiiy talqin etish oson emas edi. Shukur Xolmirzayev buning uddasidan chiqdi. Bu, aslida, ko‘p o‘tmay, «Qora kamar» drammasidagi Xurrambekda ochiq namoyon bo‘lajak qarashlarning bir qirrasi edi.

«Bodom qishda gulladi» hikoyasida yoshlar taqdiri, yoshlar hayoti qalamga olingan.

Bolalik, kasallik bois birmuncha savdoyiroq bo‘lib qolgan Nosirjon balog‘atga yetgan bir chog‘da xastaxonada o‘zi sezmagan holda Hubbijamolga ko‘ngil qo‘yadi. Faollashaver, seni qiz sevib qoldi deb, aslida esa mazax qilib, ustidan kulmoqchi bo‘lgan atrofdagilar yigit tuyg‘ularini yanada alanganishiga sabab bo‘ladilar. Qiz esa odob yuzasidangina yaxshi muomalada. Nosirjon Hubbijamolning o‘z sevgani borligini bilib qoladi-yu, qalbida ochilib kelayotgan gulchechaklar nobud bo‘ladi. Qarashlardagi, ruhiyatdagi yangilanish, o‘zgarishlarni sovuq urgandek. Ammo, baribir, bu muhabbat baxtsiz bo‘lsa-da, adashgan esada, bokira va musaffo tuyg‘ular Nosirjonning qalb ko‘zlarini ochgan edi. U odamlarni, hayotni avvalgidan tiniqroq idrok eta boshlaydi. Yillar davomida unga na devor-darmiyon qo‘shni bo‘lib kelganlar, na kasalxon-yu dori-darmonlar malham bo‘lmagan xasta ko‘nglini ishqning bodon guli yanglig‘ bokira va nastarin gullarini sog‘aytirgandek bo‘ladi. Biroq, afsuski, bu qishda ochilgan bodom gullari edi.

Asar o‘smir qalblarni, ilk muhabbat yoshidagilarni hayotga teranroq boqishga, musaffo tuyg‘ularni ehtiyot qilishga chaqiradi. Ularni hech qachon ermakka yoymaslik, bu hissiyot ko‘z ochgan damlardagi hayotning har bir lahzasi qadrini bilishga undaydi.

«Xumor» hikoyasini adib jiddiy muammolar talqiniga bag‘ishlagan. U so‘ngi bosqich o‘zbek hikoyachiligidagi kinoya, alamzada quvnoqlik usili qo‘llangan holda yaratilgan asarlardan biridir. Hikoya «Ko‘k dengiz» singari nainki o‘zbek, balki ulkan miqyoslardagi XX asrning bu janrning namunalari qatoridan o‘rin olishga haqlidir. Asarda bir millat, bir mamlakatning ma’lum bir bosqichidagi fojiasi kichik bir qahramon timsolida o‘z xarakterini o‘zi ochish yo‘sindida yoritiladi.

Qahramonning yuzi zahil, rangi panoh. Lekin qiyofamni ko‘rib, hayron bo‘lmang, qo‘rmang, kasalim yuqumli emas deydi u, kitobxon bilan yuzma-yuz muloqotga kirishib. Aybi bor odamdek, kechirim so‘rayotgandek, u fikrini davom etadi: paxtaga sepilgan dorilar ta’sir qilgan, xolos. Hikoya davomida biz qahramonning farzandi yo‘qligini, dalani ko‘rmasa xumori tutishini, o‘rmalab bo‘lsa ham dalaga chiqib turishini bilib olamiz. U xastahol bo‘lsa ham, fikrini quvnoq ohangda bayon qiladiki, san’atkor yozuvchi tomonidan tanlangan mazkur kinoya usuli asar va qahramonning kitobxonga ta’sirini yanada kuchaytiradi. Qahramon kitobxonning «Dalaga o‘rmalab bo‘lsa ham chiqishingdan maqsad nima?» degan savolini qabul qilgandek bo‘ladi-da, o‘zining (ayni vaqtida millatning) shu vaziyatdagi holatini ochishga yo‘naltirilgan ushbu javobini beradi: «Maqsad – ham xumorni qondirish, ham hissa qo‘shish, Labbay?...Siz bir narsani tushunmayapsiz: u dori mening tarjimayi holimga singib ketgan, axir! Tushunyapsizmi? Mening butun quvonchlarim, zavqlarim, hayotimning ma’nosi, vatan oldidagi burch, ilk muhabbatim ham o‘sha bilan bog‘liq».

Asar uning qahramoni, paxta yakkahokimligi va u tufayli o‘zbek xalqi boshiga tushgan zug‘um, genotsid, jabr, noilojlik qismati haqida nihoyatda muxtasar, lekin badiiy o‘tkir va ta’sirchanligi bilan qimmatlidir.

Shukur Xolmirzayev o‘zbek tabiatini, surati va siyratini, o‘ziga xos fazilatlariyu qusurlarini, xullas, o‘zi mansub bo‘lgan millat ruhiyatini mahorat bilan tasvirlovchi yozuvchidir.

Yozuvchi «Quyosh-ku falakda kezib yuribdi» hikoyasida yangi istiqlol zamoni ta’sirida ro‘y berayotgan inson qalbidagi o‘zgarishlar bilan, asrlar

davomida shakllanib kelgan milliy sajiyaning uchrashgan nuqtasida namoyon bo‘layotgan fazilatlar aks ettiriladi. Mustaqillik o‘zbek xalqining mislsiz orzularini ro‘yobga chiqardi. Biroq u birdan va birvarkayiga hamma muammolarni hal qilib berolmaydi, albatta. U bilan ayrim yangi muammolar ham kelib chiqdi. Xususan, ziyorilar hayotida yangi-yangi muammolar ko‘ndalang bo‘ldi. Hikoyada shoir Qudrat, uning oilasi timsolida shu masalalar yoritiladi. Bu hikoya ma’lum ma’noda, bo‘lg‘usi «Dinozavr» romanida tasvirlanajak ayrim qahramonlarning eskizi ham bo‘lgan. Shoir oilasi bilan qishloqqa ketadi, lekin ma’lum bo‘ladiki, turmush bu yerda ham oson emas. Biroq yozuvchining maqsadi faqat shu masalaga e’tiborni tortishdangina iborat emas. Asar davomidan bilib olamizki, yozuvchi nazarida, ahamiyatli moddiy ehtiyojdan kam bo‘lmagan, balki undan ham mo‘tabarroq bir masala bor. Bu xalq – millat tabiatining tirkagi bo‘lgan ma’naviy poklik, vijdonlilik o‘zining va o‘zganining qadrini baland tuta olish, bu masalada milliy an’analarga sodiq qola bilish – bir so‘z bilan aytganda – ma’naviyat masalasidir. Ana shu narsani yo‘qotmaslik kerak, shunga ehtiyot bo‘lmoq zarur. Qudrat inson hissiyotlari ba’zan sust kelishi mumkin bo‘lgan holatga tushushiga qaramay, bu holat uni o‘zgartira olmaydi. U ma’naviy poklikka sodiq qoladi. Matnda aytilmagan, lekin o‘zimiz uqib olishimiz lozim bo‘lgan ma’no asarni bezab turadi: to‘g‘ri, bozor iqtisodi sharoitlari tufayli ko‘p moddiy qiyinchiliklar tug‘ildi, u odamlarni ne ko‘ylarga solmadi, lekin shunga qaramay, bu qiyinchiliklar Qudratning ma’naviy irodasini buka olmadi, u millatimiz tabiatida asrlar osha sinovdan o‘tib kelgan ma’naviy poklikni saqlab qola bildi. Yozuvchi bu g‘oyani qishloqda tasodifan uchrab qolgan Zumradga Qudratning munosabatlarini ko‘rsatish orqali ochib beradi. Hikoya nomiga mashhur she’rdagi misradan olingan falsafiy fikr asarning ma’no-mohiyati va g‘oyasini joziba bilan ifodalaydi.

Shukur Xolmirzayevning so‘nggi yillarda yaratilgan chiroyli asarlaridan biri «Navro‘z, navro‘z» hikoyasidir. Ma’lumki, sho‘rolar xalqimizni qadimdan davom etib kelayotgan bu go‘zal milliy bayramni nishonlashdan mahrum qilgan edi. Ming shukrkim, mustaqillik Navro‘zni xalqning eng ulug‘ shodiyonalaridan biri sifatida qaytadan tikladi. Lekin yozuvchining maqsadi bu bayramni ulug‘lash, unga

madhiyalar o‘qish emas. Adib deyarli barcha hikoyalarida bo‘lganidek, bu asarda ham tabiat bahonasida inson qalbini badiiy tahlil qiladi. Tabiat ta’sirida inson ruhiyatida kechajak evrilishlarni yoritadi. Sulton, Obid Odiljonvich, Joniqul Jondorov singari taniqli olimlar hikoya qahramonlari. Navro‘ nainki tabiatni, balki inson qalbini ham yangilaydi, oliyanobroq qiladi, degan aqidaga ko‘ra, bu ulug‘ shodiyona kunda do‘srlar ko‘pdan buyon arazlashib yurgan ikki olimni murosaga keltirish taraddudini ko‘radilar. Sulton zamonni, o‘zgarishlarni, qiyinchiliklarni, inson ruhiyatidagi turli holatlarni yaxshi tushunadi, ularga to‘g‘ri baho bera oladi. Joniqul Jondorovni esa, na tabiat van a jamiyatda kechayotgan bayram ruhi o‘zgartira oladi, na do‘srlarning unga munosabati. U avval qanday bo‘lsa, hozir ham shunday: o‘ziga ortiqcha bino qo‘ygan, kekkaygan, do‘sst uzrini qabul qilishdan ojiz. Navro‘zga mengzalgan mustaqillik ham uning dunyoqarashiga yetarli ta’sir ko‘rsatolmaydi. Uning fikricha, o‘ziga to‘q, badavlat odamdan yaxshilik kutish qiyin, yaxshilik faqat faqir-u haqir kishining qo‘lidan kelishi mumkin. Ma’lumki, sho‘rolar kambag‘alni ham boy qilish o‘rniga, boy boylarni ham qashshoq qilib, kulini ko‘kkasovurgan edi. Yuqoridagi qahramon qarashlaridan uning ongida o‘rnashib qolgan ana shu siyosatning hidi kelmaydimi?

«Chinakam o‘zbekona fe’l-atvorni – yutug‘i ham, nuqsoni ham o‘zimizga tegishli bo‘lgan hayot tarzimizni asarlarida mahorat bilan tasvirlagan adib Shukur Xolmirzayev umr bo‘yi ijod dardi bilan yashadi», –deydi Otabek Safarov o‘zining o‘zbek tili va adabiyoti gazetasidagi maqolasida. Binobarin, adibning adabiyot va unga munosabat bobidagi ijodkor shaxsiyati, mas’ulyati kabi masalalardagi qarashlaridan badiiy ijod sirini bilishda ochqich sifatida foydalanish mumkin.

«Badiiy asar tili Shukur Xolmirzayev uchun g‘oyatda muhim «pirinsipial masala» edi. O‘z asarlarida til me’yorlariga qat’iy rioxay etgan yozuvchi boshqalarning ham tilga e’tibor berishini istar, uning buzilishiga olib borishi mumkin bo‘lgan barcha «o‘ziga xosliklar»ni inkor etardi. Jumladan, ko‘proq xayolga, xayolning ham pinhoniy o‘yinlariga qurilgan va daf’atan kishiga beo‘xshov bo‘lib tuyulsa-da», pirovardida kitobxonni ishontiradigan usulda ijod qilayotgan yozuvchilar Sh.Hamro, S.Vafo, N.Eshonqul, Q.Norqobil va

boshqalarning asarlari haqidagi mulohazalarida Shukur Xolmirzayev shunday ta'kidlaydi: «Ruh yo'lidagi adiblarimizda til chatoq. To‘g‘ri, ulardagi mazmunning o‘zi murakkab va alohida tasvir vositalarini yangicha jumla qurilishlarini, mavhumiyatni bordek ko‘rsatmoq uchun shunga muvofiq til lozim. Ammo baribir... ular til yo‘rig‘ida oqsashlari ustiga jiddiy ishlamayotirlar ham. Ishonmasangiz ixtiyor o‘zingizda, u moderniy mulliflar ko‘pincha tinish belgilarini ham o‘rnida ishlatmaydilar....» Holbuki, «Biz bitta adabiy tilni qabul qilganmiz. Haqiqiy adabiy tilimiz Cho‘lponning tili. Men yozganimda hamma vaqt avtor tilidan, adabiy tilda yozishga harakat qilaman. Ammo qahramonlarim o‘z-o‘zicha. Shuning uchun adabiy tilga har narsani tiqishtirib, talaffuzini buzib yurishni yoqtirmayman», -deydi yozuvchi. Uning nazarida badiiy asarlariga shevaga oid so‘zlarni o‘rinsiz qo‘saverish adabiy til sofligiga putur yetkazadi, uning nufuzini pasaytiradi. Ammo bu tilning sofligini saqlash haqidagi qoidalarni mutlaqo dogmaga aylantirish degani emas, zotan, til tinimsiz harakatdagi jarayondir. Shumanoda har bir tilning lug‘at qatlami muttasil boyib boradi. Muhimi, bu boyishning o‘rinli so‘zlar hisobiga amalga oshishida. Ya’ni, badiiy asarda muayyan holatni yorqin aks ettiradigan, xarakter mohiyatini ochishga xizmat qiladigan shevaga oid so‘zdan foydalanish ijobi hodisadir: «Agarda mahalliy sharoitda o‘zbek tilini boyitish imkoniyatiga ega bo‘lgan «sheva elementlari» bo‘lsa, uni ikkilanmasdan olib kiraverish kerak.» [74].

Ma’lumki, bir qator qissa, roman, drama va o‘ndan ortiq esse yozganiga qaramay, Shukur Xolmirzayev, asosan, hikoyanavis sifatida tanildi, e’tibor qozondi. O‘zining iqror bo‘lishicha, adib dunyo hikoyachiligin chuqur o‘rgangan. U jahon hikoyanavislari orasida to‘rtta yozuvchini «klassik» deb e’tirof etadi: «rus adabiyotida Chexov, ingliz adabiyotida Jek London, hind adabiyotida Tagor va o‘zimizning adabiyotda Abdulla Qahhor». Bu adiblar ijodidagi o‘ziga xos jihatlar Shukur Xolmirzayevni rom etgan edi. Jumladan, Anton Chexov hikoyalaridagi «fe’l-u atvorli tirik odam qanday aks etishi», «obrazning takomili», «Jek London asarlaridagi muallifning lozim topgan o‘rinlarda o‘z qahramoniga munosabatini

ochiq-oydin ifodalashi, Tagor hikoyalaridagi «umuminsonlar uchun ham kerakli bir ma’no»yozuvchini mutaassir etgan [75].

Adib hikoyalarini o‘qir ekanmiz, yozuvchining uslubidagi bir jihat e’tiborimizni tortdi, bu Shukur Xolmirzayevning obrazlarga nom tanlashidir. Avvalambor, nominator sifatida har bir ijodkorning o‘z qahramoniga ism qo‘yishi uning uchun mas’uliyatli ishdir. Chunki o‘zbek tili leksikasining tarkibiy qismi bo‘lgan ismlarda o‘zbek xalqining qadimiyligi ishonch va e’tiqodlari, so‘z sehriga ishonish, so‘zning odamning taqdiriga, sog‘ligi va istiqboliga ta’siri, ota-onalarning umid va armonlari, ularning kundalik turmush tarzi, kasb-korlari, etnik urf-odatlari, diniy e’tiqodlari, farzandining istiqboliga ishonch bilan qarashlari, ularning yuksak madaniy-estetik didi, qolaversa, ism ijod qilishdagi topqirligi, mahorati, tilning leksikasidan ustalik bilan, o‘rinli foydalanishi, ism yaratishda leksemalarning ko‘chma ma’nolari, ayniqsa, o‘xshatish, baholash, sifatlash, mubolag‘a kabi usullardan o‘rinli foydalanishi, shuningdek, boshqa xalqlar bilan lisoniy hamkorligi kabi xususiyatlar o‘z ifodasini topgan. Bolaga ism tanlash, ism berish jarayonining mohiyati va asosiy vazifasi shaxslarni bir-biridan ism berish orqali farqlashgina emas, markazida inson turgan butun bir ulkan faoliyatning mahsuli ekanini ko‘rsatadi. Shuning uchun har qanday vaqtda ham ijodkor bu ishga o‘zlikni yo‘qotmagan holda milliylik asosida yondashmog‘i lozim deb o‘ylaymiz. Hozirgi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamonaviy hayotimizda ijod qilayotgan ijodkorlarning bu sohaga munosabatlari shuning uchun ham e’tiborimizni tortgan edi.

Shukur Xolmirzayev asarlarida onomastik birliklarning qo‘llanilishida antroponimlar alohida o‘rin tutadi. Yozuvchi qahramonlariga ularning xarakteri, xususiyatidan kelib chiqib ism tanlagen. Hattoki ba’zi hikoyalarida nominatorlikdan chekingan holda bosh qahramonlarga nom qo‘ymagan. Bu, albatta, adibning o‘ziga xos badiiy asar tili uslubi hisoblanadi. Masalan, butun bir mamlakatning ma’lum bir bosqichidagi fojiasi kichik bir qahramon timsolida yoritilgan ”Xumor” hikoyasida adib bosh qahramonga nom qo‘ymaydi. Bizningcha, «Xumor» hikoyasining bosh qahramoni butun bir millat timsoli

bo‘lganligi uchun ham hikoyada unga nom qo‘yilmagan. Ammo boshqa bir hikoyalarida buning tamomila aksini ko‘ramiz. Yozuvchinimg «Tabassum», «Omon ovchining o‘limi», «Qish hangomasi», «Qumrilar», «Arosat», «Bitikli tosh» kabi bir qancha hikoyalarida qahramonlarning ismi qahramon xatti-harakati, taqdiri yoxud asar sujetiga bog‘liq holda tanlanganining guvohi bo‘lamiz.

«Qumrilar» hikoyasida adib qahramonlardan biriga Po‘lat nomini qo‘ygan ammo uni asarda birgina o‘rindagina ismini tilga oladi, qolgan o‘rinlarda esa puchuq laqabini qo‘llaydi. Bu ismnning tub ma’nosiga e’tibor beradigan bo‘lsak

Po‘lat – fors - tojikcha po‘latdek mustahkam yashaydigan, umri uzoq bola degani.

To‘g‘ri hikoyada bu ma’no umuman aksini topmagan. Xuddi shuning uchun ham adib uning nomini bir o‘rindagina tilga olib, qolgan o‘rinlarda laqab bilan tilga olgan. Uning laqabi puchuq bo‘lib, puchuq – yassi, yopishgan yoki shikastlangan burunli kishiga nisbatan qo‘llaniladigan laqabdir. Adibning asar yozishda hayot bilan hamnafasligini shu o‘rinda kuzatish mumkin, ya’ni hayotida ismiga munosib bo‘lmagan kishilarni jamiyat laqabi bilan tilga oladi.

Yana bir qahramon nomi Olim.

Olim «arabcha» bilimli, bilimdon, donishmand degan ma’nolarni boldiradi. Ijobiy obrazdagi bu qahramon haqiqatdan ham ziyoli bo‘lgani uchun ham adib bu obrazga shu ismni munosib ko‘rgan. Familiyasi Qoryog‘diyev bo‘lgan qahramonni adib quyidagicha ta’riflaydi.

«Familiyasi – Qoryog‘diyev edi. Lekin o‘zi qop-qora, ko‘zlar o‘ynab chiqqan tag‘in qulog‘i og‘ir odam edi. Qachon qaramang, idora oldiga chiqib, sigaret chekib turardi.

Yozuvchi bu qahramonning ismini emas familiyasini keltirgani boisi bu obraz direktor bo‘ladi. Ta’rif orqali adib aytmoqchiki inson tashqi ko‘rinishi uning ismi yoxud familiyasiga hamma vaqt ham munosib bo‘lavermaydi.

Qo‘ysinoy «o‘zbekcha» tinch, osoyishta bo‘lsin, yashasin, umri uzoq bo‘lsin degan ma’nolarni bildiradi. Hikoyada haqiqatdan ham bu obrazning o‘zini tutishi

ancha tinch va osoyishta bo‘ladi. Bu bilan adib ism xarakterni ham ochib berishi mumkinligini aytmoqchi.

Eshvoy «o‘zbekcha» do‘st, hamdam, yo‘ldosh.

Hikoyada bu qahramon ham xarakterni ochib bergen. Ya’ni bu obraz o‘ziga nisbatan Qo‘ysinoyning munosabati qanaqaligini bilmasada uni chin yurakdan sevib hurmat qiladi va unga doim hamdam, yo‘ldosh bo‘lib o‘zini uning do‘sti hisoblab yuradi. Bu obraz mulla laqabi bilan bir nechta o‘rinlarda tilga olinadi. Bu laqabining unga nisbatan qo‘llangani sababi Eshvoyning ma’lumotli, o‘qimishli kishi bo‘lganligi. Chunki bu laqab o‘qimishli kishiga murojaat formasi hisoblanadi.

Yozuvchi «Arosat» hikoyasida bosh qahramoniga Xo‘jamyor deb nom qo‘ygan.

Xo‘jamyor «fors-tojikcha» Alloh yor bo‘luvchi, qo‘llaydigan bola.

Haqiqatdan ham bu qahramonga Alloh yor bo‘lgan va qo‘llanganki u yozuvchi tasvirlagandek baobro‘ inson bo‘lib yetishadi va insonlarga yordam qo‘lini cho‘zadi.

Uning ustozи Zokir o‘rin (maktab o‘qituvchisi) uning ko‘tarilganligini eshitib uni eslaydi va tabriklagani oldiga keladi.

Zokir «arabcha» yodga oluvchi, eslovchi, xotirlovchi ya’ni ollohga sig‘inuvchi.

Abdu «arabcha» qul, banda, degani. Haqiqatdan ham bu obraz Xo‘jamyorning quli. U asarda o‘zini xuddi shunday deb tanishtiradi.

«Omon ovchining o‘limi» hikoyasining bosh qahramoni ovchi Omon bo‘ladi. Omon «arabcha» sog‘-omon bo‘luvchi, najot topuvchi ,umri uzoq. Ammo qahramonning umri uzoq bo‘lmaydi u erta halok bo‘ladi. Yozuvchi bu bilan ism taqdirga hamma vaqt ham munosib bo‘lmasligi mumkinligini aytmoqchi bo‘lgan. Hamdam Omonning do‘sti. Bu ism ma’nosi do‘st, o‘rtoq; sodiq, vafodor do‘st. Hikoyadagi bu qahramon haqiqatdan ham o‘z ismiga mos Omonning vafodor do‘sti.

Hikoyadagi Ulton ismli qahramonning nomini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu ismning lug‘aviy ma’nosi “O‘zbek tili izohli lug‘ati”da quyidagicha berilgan: “qoramol terisidan tayyorlangan charm, tagcharm”[47]

Xalqda ushbu so‘z bilan bog‘liq “o‘zga yurtda sulton bo‘lguncha, o‘z yurtingda ulton bo‘l” degan maqol ham mavjud.

Adib bu ismni laqab bilan qo‘llagan,ya’ni Ulton piyon. Piyon degani kayfi oshgan, mast. Demak, bu obraz doimiy ichib yuruvchi, mast kishi. Menimcha, adib bu qahramonning ismini hayoti bilan bog‘liq holda shunday tanlagan. “Tabassum” hikoyasi bosh qahramoniga Jalil ismini qo‘yadi. Jalil- yuksak, ulug‘vor, dongdor, mashhur degan ma’noni bildiradi. Bu bilan ijodkor qahramonining insoniy fazilatlari yuksak, ulug‘vor kishi ekanligiga ishora qiladi. Qahramondagi bu sifatlar hikoyadagi quyidagi o‘rnlada o‘z aksini topgan: “...Jalil aka o‘sha qilgan xizmatlari haqqiga ittifoqo bitta ham nishon taqmadi. Nishon qayda, bir parcha yorliq ham olmadi. Lekin bu narsalarni orzu qilmagan ham edi: u qilishi lozim degan ishni qilar, aksini qilmas, yo‘q o‘zligiga qarshi bormas,bunga kuchi yetmas edi...” Bu obrazdagi o‘zlikni anglash, vijdoniylik, sodiqlik kabi sifatlar qahramonning ismiga munosibligini tasdiqlaydi.

Asardagi yana bir obrazga ijodkor Mo‘min nomini tanlagan. Mo‘min ismi dinga sodilagini til va iqror bilan hamda qalban tasdiqlovchi, imonli, xudojo‘y. Va yana Mo‘min ismi Allohning sifatlaridan biri bo‘lib, bandalarini asrovchi, ular xavfsizligini ta‘minlovchi demakdir. Hikoyada Mo‘min otaning qanday hold abo‘lmasin imon-e’tiqodi mustahkam kishi ekanligini ochib berish uchun shu ism tanlangan. Haqiqatan, uning e’tiqodi shunchalik mustahkamki, davr talabi bilan qilayotgan ishi noto‘g‘rib o‘lsada, uni to‘g‘ri deb hisoblaydi. Buni quyidagi o‘rinlarda ko‘rish mumkin: «Ilk qishloqqa yaqinlashganda , Jalilga qarab: -Ko‘rdingmi, bosmachini ushslash qanday bo‘ladi?- dedi.

Jalil garangsib:

-Siz ushlaganingiz yo‘q,-dedi.

Mo‘min taqa to‘xtadi.

-Esa senmi?

-Bog‘lashga bog‘ladingiz.

Shunda Quyun qo‘rboshi o‘girildi.

-Bola ekansan-ku, Jalil, -dedi.-Buni men bilaman... Bu seniyam otib qo‘yishi mumkin».

Hikoyada yozuvchi Jalil otaning o‘g‘liga Shokir ismini qo‘yadi. Bu ism ma’nosi quyidagicha: Ollohga shukr qiluvchi, tangridan minnatdormiz, farzand bergeniga shukr qilamiz. Ijodkorning bu qahramonni Shokir deb ataganining sababi, uning Jalil otaga yakka-yu yagona farzand ekanligidandir.

Shukur Xolmirzayev shu obrazning qiziga Sadaf degan nomni qo‘yan. Bilamizki, har bir ota-onas uchun farzand eng aziz va qimmatlidir. Mana shuning uchun ham ijodkor unga Sadaf ismini qo‘yan. Sadaf ismi esa adabiyotlarda quyidagicha ta’riflangan: sadafdek tish bilan tug‘ilgan bola; sadafdek bebaho, qimmatli qiz.

«Bir kuni sevimli nevarasi – yolg‘iz o‘g‘lining yagona qizi Sadafdan so‘radi».

Quyun qo‘rboshi – bu hikoyadagi epizodik obrazlardan biri. Quyun ismi qattiq quyun payti tug‘ulgan bolaga qo‘yiladi. Bizning fikrimizcha, ijodkor qahramonning kuchli ekanligiga ishora sifatida unga shu ismni mos ko‘rgan va bu bilan ism jismga mosligini isbotlagan.

«Kechasi allamahal. Jalil bezovta. Qo‘rqadi. Quyundan qo‘rqadi. U ho‘kizdek kuchli».

Mana shunday epizodik obrazlardan yana biri Orzixo‘jadir. Bu ism ikki qismdan iborat. Birinchi qism orzu, umid qilib yurib erishilgan bolaga nisbatan qo‘yiladi, ikkinchi qism esa uning xo‘jalardan chiqqanligiga yoki boyning o‘g‘li ekanligiga ishora sifatida qo‘llaniladi. Bundan tashqari, chaqaloqqa beriluvchi bir qator nomlar islom dinining muqaddas, xosiyatli oylar, kunlar haqidagi g‘oyalarini ifoda qiluvchi so‘zlardan yasalgan: Sayid, Xo‘ja, Hoji, Juma kabi. Bu so‘zlar chaqaloqqa yaxshilik va baxt keltiradi deb ishonilgan degan qarashlar ham bor. Hikoyadagi xo‘ja esa bu qahramonning xo‘jalardan chiqqanligiga ishora sifatida qo‘llangan. Ya’ni buni quyidagi o‘rinlarda ko‘rish mumkin:

«←Rahmatli komandirimiz o‘zi xo‘jalardan chiqqan edi... Xo‘jasan deb qamashgan...»

Adibning «Qariya» hikoyasini o‘qib ko‘z oldimda o‘zbeklarning chinakam ota-bobolari gavdalandi. Bu hikoyadagi bosh qahramon Qo‘ziboy chol halol, mehnatkash o‘zbek otaxonlaridan. Uning ismiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu ism o‘zbekcha suyukli, erkatoy bola yoki mol-u davlatli bo‘lsin yoxud qo‘ylar qo‘zilagan mavsumda tug‘ilgan bola. Haqiqatan ham Qo‘ziboy chol hammaning hojatini chiqarib, ko‘nglini ko‘tarib barchaning sevimli kishisiga aylangan obraz sifatida tasvirlangan:

«Ertalab u xotirjam bir holatda hovliga chiqdi. Odamlardan rozi-rizolik olish, qo’shnilarining uyiga mo’ralash ,kiyim bozorga borib ,tanish bilishlar bilan ham xo’shlashish, Qobilboyga uchrab xotinining qabrini qanday qilib topishi va uchinchi kuni xaloyiqni chaqirib, yettisini ham, qirqini ham, yilini ham bir yo’la o’tkazib yuborishni tayinlash, so’ngra bozorkonga yo’liqib u bilan ham vidolashishni diliga tugdi...»

Uning farzandi yo’q, xotini erta vafot etgan, shunga qaramasdan u yolg’iz emas. Qo‘ziboy chol mana shu el kishilar bilan ovunadi, ular bilan birga quvonchini ham tashvishini ham baham ko’radi .

Uning do’sti Qobil qassob esa unga, to‘g’rirog’i, uning omonatiga xiyonat qiladi. Qo‘ziboy chol o’limligiga deb yig’gan pulini do’stiga beradi, biroq qassob bundan tonadi. Odatdagidek chol o‘zbekchiligidagi borib u bilan janjal qilmaydi, bu uning haqiqiy o‘zbekligini ko’rsatadi:

«Qassob Qo‘ziboy cholning pulini o’shandayoq ishlatib yuborgan va bu odamning hech kimi yo‘qligi, o‘zi xudojo‘y hamda urish-janjaldan nari yurishini bilgani uchun o’shandayoq quvonib: »Bu o’zimniki bo’ldi ,» - deb qo‘ygan edi.

Qobil ismi arabcha, iste’dodli, qobilyatli, kuchli, qudratli yoki yuvosh tarbiya ko’rgan yoxud orzu va tilaklarimiz bajo bo’lib berilgan bola degan ma’noni bildiradi.

Demak, ko’rib turganimizdek Qobil qassob ismiga monand baquvvat kishi bunga ijodkor quyidagi o’rinlarda ishora qiladi:

«Yo'g'on, baquvvat qassob unga o'tkir tikildi.»

«Bu baquvvat, barvasta, sog'lom odamga Qo'ziboy aka avvallari ham oriqligi, qotmaligi uchun kasaldek ko'rinar, ming so'm pulni keltirib sanab bergenida «shu o'ladi-yov»; deb ko'ngildan o'tkazgan edi.»

Cholning oqibatli qo'shnilaridan biri Jamol. Bu obrazning nomiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu ism ham arabcha chiroyli, nafosatli, xushro'y bola degan ma'noni bildiradi.

Menimcha, ijodkor bu qahramonning fe'li, xarakteri chiroyli va yaxshi bo'lganligiga ishora sifatida unga shu ismni qo'ygan .

Hikoyadagi qahramonlardan yana biri Shoymardon Qudrat. Bu nom ikki ismda tashkil topgan bo'lib, Shohmardon mardlar jasurlarning boshlig'i sardori, shohi. Qudrat arabcha, quvvatli, kuchli, qodir degan ma'noni anglatadi. Hikoyadagi quydagi o'rinda uning ismiga munosib obraz ekanligini ko'ramiz:

« E, bu Shoymardon qudrat deganingiz toza zo'r ekan.desangiz,paykalda paxta oppoq bo'lib shu ...charvi moydek bo'lib oqib yotibti. Mashinasi bilan bir oralasa bormi, quruq g'o'zasini ko'rasiz. U zo'r ekan ...Haloli bo'lsin. Oltita bolasi bor ekan, xo'sh ...bitta qo'li cho'loq, o'zi anavi Sho'rchidan bo'ladi. Qo'ng'irotdan, Boysun Qo'ng'irotdan. Alpomishning urug'i-da , baraka opsin ...»

Yana xuddi shunday epizodik obrazlardan biri Qodirboy. Bu ism ham arabcha kuchli, qudratli, barcha narsaga layoqatli degan ma'noni bildiradi, bu nom allohning sifatlaridan biridir «Qodirboy ko'p mo'min –musulmon odam edi .»

Menimcha, qahramon ismining olloh sifatlaridan biri ekanligi va bu qahramonning mo'min –musulmon kishiligi o'rtasidagi bog'liqlikka ishora sifatida ijodkor bu qahramonga shu ismni qo'ygan.

Adibning nom tanlashdagi mahorati va o'ziga xosligi uning ijodida alohida o'rin tutadi. Yuqorida bayon etilgan fikrlardan ko'rinish turibdiki, yozuvchi o'z qahramonlariga ism tanlashda xalqimizning milliyligini, urf-odatlarini yoritishga erisha olgan. Asar voqealari ham, qahramon nomlari ham o'zimizning chin hayotimiz va tariximizdan kelib chiqib tanlangan.

### **III bob. Istiqlol davri hikoyalarida antropoindikatorlardan qo‘llanilishi.**

#### **III.1. Tilshunoslikda antropoindikator tushunchasi va badiiy asardagi o‘rni.**

Indikatorlar antroponimlarni tilning lug‘at tarkibida o‘ziga xos alohida bir tizimga birlashtiruvchi vositadir. Ular kishi ismlari tarkibida kelib uni biror jihatdan xarakterlab, konnotativ ma’no ifodalaydi. Har bir indikatorni qabul qilgan antroponim shu indikator uchun mikrotekst vazifasini bajaradi. [39]

Tilimizdagi har bir til birliklari ma’lum bir ijtimoiy jarayon natijasida sodir bo‘ladi. Jumladan, antroponimlar va ularning paydo bo‘lishi haqida ham shu mulohazaga tayanish mumkin. Nomlarning kelib chiqishida antropoindikatorlar asosiy vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga ular ma’lum bir leksik-funksional xususiyatga ham ega.

Indikator atamasi izohiga e’tabor qaratadigan bo‘lsak, bu so‘z lotincha “indikator” so‘zidan olingan bo‘lib, “ko‘rsatkich”, “ishora qiluvchi” ma’nolarini bildiradi. O‘zbek tilshunosligida Z.Do‘simov indikator atamasini ilk bor toponimik indikatorlar sifatida qo‘llagan.

Antropoindikatorlar mohiyatan 2 ga bo‘linadi:

1. Ichki indikatorlar
2. Tashqi indikatorlar

Ichki indikatorlar deganda antroponimdagи antroponimik belgisi uning o‘z ichki imkoniyatidan tushunilib turishi nazarda tutiladi. Chunonchi antroponomiklarning bosh harf bilan yozilishi, ma’lum bir qurshovda uchrashi va shu nutqiy qurshovda o‘zaro ichki guruhlarga xoslanishi (Ra’no, Malika –ayollar; Qo‘chqor, Bolta –erkaklar ismlari kabi) anglashiladi.

Antroponimlarda tashqi indikatorlik vazifasini turli affiksoid va ma’no umumlashtiruvchi tavsifiy so‘zlar bajaradi. [39]

Antroponimlarga qo‘shilish xususiyatiga ko‘ra indikatorlar quyidagilarga bo‘linadi:

1. Erkaklar ismiga xos;
- bek; Avazbek, Xolbek, Durbek, Oybek.

-boy; Eshboy , Dilshodboy , Homidboy, Rasulboy.  
-bobo; Bekbobo , Ahmadbobo, Karimbobo, Samadbobo.  
-buva; Buvamuhammad , Boybuva , Nazirbuva, Rahimbuva.  
-mir; Mirtemir, Toshmir , Mirjalol, Mirolim, Saidmir.  
-mirza; Boymirza , Xolmirza, Nortoymirza, Olimmirza.  
-oxun; Saidoxun, Sobiroxun, Naimoxun, Piroxun.  
-toy; Nurtoy, Rahimtoy, Anortoy, Iristoy.  
- xo‘ja; Qosimxoja, G‘ulomxoja, Mavlonxo‘ja, Tursunxo‘ja, Po‘latxo‘ja.  
-qul; Ziyoqul, Nurqul, Toshqul, Tursunqul, Eshqul.

2. Ayollar ismiga xos:

-beka; To‘ybeka, Xolbeka, Xushbeka, Rajabbeka, Qurbonbeka.  
-bibi; Asilabibi, Zumradbibi, Anziratbibi, Anorbibi, Barisbibi.  
-bibish: Gulbibish, Norbibish, Oybibish, To‘ybibish.  
-begi: O‘g‘ilbegi , Qizlarbegi.  
-begim: Sorabegim,To‘ybegin, Xolbegin.  
-bonu; Orzubonu, Samarbonu, Asalbonu, Mashrabbonu.  
-bika: Boltabika, Gulbika, Jumabika.  
- buvish ;bibish: To‘ybibish, Oqbuvish .  
-gul; Oygul, To‘xtagul, O‘langul.  
-Oy (oyim ); Asaloy, Guloyim, Adashoy, Bahoroy, Begoyim, Guloyim .  
-poshsho; Sultonposhsho, Nurposhsho, Oyposhsho, O‘g‘ilposhsho.  
-xonim; Durxonim, Oyxonim, Norxonim.  
-pochcha: Durpochcha, Oypochcha, O‘g‘ilpochcha.  
-momo yoki mo; Gulmomo, Sarvarmomo, Bozormomo, Ro‘zimo.  
-to‘ti; Oyto‘ti, Jonto‘ti .  
-buvi: Aqidabuvi, Bahorbuvi.

3. Erkak va ayol ismiga qo‘shilishiga ko‘ra betaraf bo‘lgan antropaindikatorlar:

-jon; Mansurjon, Rizojon, Axtamjon (erkaklar )  
Guljon, Norjon, Nazirajon (ayol )

-Xon: Komilxon, Dadaxon, Rasulxon, Kumushxon, Hikmatxon, Azizaxon.

-To‘ra: Boboto‘ra, Is’hoqto‘ra, Karimto‘ra, Oyto‘ra, Qizlarto‘ra, Gulto‘ra.

Yuqorida qayd etilgan turli affiksoid va tavsifiy so‘z elementlar kishilarga bo‘lgan subyektiv munosabatni; badiiy tasvirda muallifning persanajga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatishda muhim uslubiy vosita hisoblanadi[14].

Xuddi shuningdek, antroponimlar tarkibidagi turli xil indikatorlar kitobxonga hissiy ta’sir qilish, unga estetik zavq berish xususiyatiga ham ega. Bu vositalar orqali kitobxon asar qahramonlarning jamiyatidagi o‘rmini, ruhiy holatini, obraz mohiyatini yanada yorqinroq tushunadi.

Bizningcha, indikatorlarni ismlarga qo‘shishdan maqsad,

Birinchidan, ismga konotativ ma’no berish,

Ikkinchidan, ism egasining qaysidir xarakter, xususiyatini ochib berish;

Uchinchidan, turdosh otlardan atoqli ot hosil qilishdir.

Har qanday indikator shu 3 maqsaddan, albatta, birini o‘zida aks ettiradi. Buning isboti uchun ba’zi indikatorlarni tahlilga tortamiz.

**Bek.** Bu indikator hurmat, erkalash ma’nolarini ifodalash uchun ismlarga qo‘shiladi: Amirkbek, Dilshodbek.

Bundan tashqari, turdosh otlardan atoqli ot yasash vazifasini ham bajaradi: Elbek, Bektosh.

Tarixiy nuqtayi nazardan esa bu indikator maxsus mansab kishilari uchun xos bo‘lgan. Keyinchalik esa u o‘z vazifasini yo‘qotib yuqoridagi xususiyatlarnigina namoyon qilgan va, nazarimizda, shu tariqa indikator holiga kelib qolgan. Agar u o‘z vazifasini yo‘qotmaganda, balki, indikatorlasholmasligi mumkin edi.

**Boy** antropoindikatori subyektiv baho shaklini hosil qilish uchun ishlataladi: Rasulboy, Abdiboy qolaversa, sifat, son va fe’llardan atoqli ot yasashi ham mumkin.

Yaxshiboy, Yetmishboy, Turdiboy.

Boy indikatoriga E. Begmatov «O‘zbek ismlari» kitobida quyidagicha izoh beradi: «Boy – asli boylar, badavlatlar avlodiga mansubli; boy-badavlat, hukumron, janob.

Ism tarkibida bolaga to‘qlik, farovonlik tilash, hurmat, ehtirom ma’nolarida keladi. Ba’zan farzandimiz ko‘paysin, serfarzand bo‘laylik ma’nosini ham ifodalaydi.»

**Xon, oy** indikatorlari suyish, erkalash, go‘zal, chiroyli ma’nolarini ifodalaydi: Nigoraxon, Nasibaoy, Shirinoy.

Bundan tashqari talaffuz o‘zgarishi bilan bu indikatorlar salbiy, kinoya ma’nosida ham ishlatilishi mumkin. Bu indikatorlar ham turdosh otlardan atoqli ot yasashda faol ishtirok etadi: Iboxon, Dadaxon, Durxon, Shirmonoy, Shakaroy, Cho‘lponoy.

Oy indikatori kengayib oyim shaklida ham kelishi mumkin. Bu vaqtda ulug‘lash, ehtirom ma’nolari anglashiladi: Ulug‘oyim, Hakimaoyim. Olim E. Begmatov fikricha esa bu indikator oliv nasab avlodga mansub qiz, ayol; hurmatli, e’zozli, taqvodor xonadonga mansub qiz, ayolga nisbatan qo‘llanadi. Bu fikrga qo‘shilamiz, chunki o‘zbek adabiyotining shoh asarlaridan biri ”O‘tkan kunlar” romanida qo‘llangan Oftoboyim, O‘zbekoyim antroponimlari shu fikr isbotiga xizmat qiladi.

**Gul.** Odatda yangi tug‘ilgan chaqaloqni ota-onalar ko‘pincha gulga qiyoslaydilar, gul kabi pokiza, nafis, toza, chiroyli bo‘lishini istaydilar. Shu sababli gul so‘zi orqali yasalgan xotin-qiz ismlari juda ko‘p uchraydi: Baxtigul, Donogul, Gulbadan.

**Jon.** Bu so‘z o‘z mustaqil ma’nosи va erkalash, suyish, hurmat kabi ma’nolari bilan turdosh otlarga qo‘shilib, uni atoqli otga aylantirishga xizmat qiladi: Bobojon, Mullajon, Feruzajon.

Odatda insonlar bu indikatorni o‘zlari uchun yaqin, qadrli, e’zozli, yoqimli bo‘lgan kishilar uchun qo‘llaydilar. Shuning uchun u yakka holda ham antroponim o‘rnida bemalol qo‘llana oladi. Bu holatni asosan oilaviy munosabatlarda ko‘rishimiz mumkin.

**Qul.** Bu so‘z o‘zining dastlabki ma’nosidan uzoqlashgan bo‘lib, ko‘pincha erkalash, suyish ma’nolarida, shuningdek, turdosh otlarni atoqli otga aylantirishda qo‘llaniladi: Nurqul, Toshqul, Hamidqul.

**Toy.** Bu indikator ham erkalash suyish, orzu-istak ma'nolari shakl yasash va turdosh otlarni atoqli otga aylantirishga xizmat qiladi: Shertoy, Rahimtoy.

### **III.2. Mustaqillik davri hikoyanavislari ijodida antropoindikatorlar.**

Yuqorida biz indikatorlar haqida so`z yuritganimizda ularning xon, jon, boy, toy, qul, bek shakllari haqidagi fikr-mulohazalarga to`xtalib o`tdik. Ammo, bizning fikrimizcha, ota, opa, aka, chol, bobo kabilar ham onomastika sohasi nuqtayi nazaridan ma`lum bir o`rinlarda indikator bo`la oladi. Masalan, «Odil aka oldinda shafyorning yonida o`tiribdi» deganda ijodkor qo`llagan Odilni unga hech qanday aka bo`lmasligini bilamiz, bizningcha, bu yerda yozuvchi Odil obraziga nisbatan hurmat ko`rsatkichini ifodalash uchun uni Odil aka deb nomladi. Mana shunday holatlarni yuqoridagi adiblar asarlari misolida ko`rib chiqamiz.

Adib, Shukur Xolmirzayev, hikoyalarida ota, bek, aka, chol, bobo, boy kabi antropoindikatorlardan unumli foydalangan. Hikoyalardagi ba'zi misollar orqali yuqorida tilga olingan indikatorlarning asarda ishlatalish vazifasini ochib berishga harakat qilamiz.

**Ota.** «Jalil ota karaxt tortib qoldi, qayoqdan paydo bo`ldi bu dard. «Shu, Mo'min ota bilan qalaysiz?»

Bu indikator hurmat ma'nosini, ya'ni ijodkorning o'z qahramoniga nisbatan bo'lgan sof hurmatini ifodalash uchun qo'llangan.

**Aka.** Bu indikator ham hurmat ma'nosini ifodalash uchun qo'llangan qahramonning qahramonga yoxud ijodkorning qahramoniga bo'lgan samimiyl hurmatini:

«-Ha, paxtalar ham oyoqlab qoldi... Qani, bu yashash qalay endi? – dedi O'rmon aka»

«Echki shayton bo'ladi-da, Odil aka». «Qo'yinglar. Qo'ldosh aka, siz kattasiz».

«Shokir kelib, Mo'min aka haqida gap boshlaydi»

«Jalil aka deraza tagida yotardi»

«Lekin Tavakkal akaning so'zlarini eshitardim, munosabat ham bidirardim»

«E, Shoyim aka o‘zingiz turing»

«Odil aka oldinda shafyorning yonida o‘tiribdi»

**Bek** Indikatori esa erkalash va qahramonning yoshligiga ishora sifatida qo‘llanilgan.

«...Gap shundaki, Jalil aka Jalilbek bo‘lib, Orzixo‘ja komandirning otryadida yurganda, bir tun uni o‘choq boshiga chaqirib, Orzixo‘ja shunday dedi:

- Quyun qo‘rboshini bilasan-a?»

**Chol, bobo** indikatorlari obrazning jamiyatdagi o‘rnini, yoshini ko‘rsatish uchun qo‘llanilgan:

«Jalil chol favqulodda sezib qoldiki, o‘g‘li bilan kelini behad shoshilyapti.»

«Mo‘min bobo... grajdan urushining qahramoni»

«Qo‘ziboy chol shu oqshom yotib qoldi»

**Boy** indikatori subyektiv baho shaklini hosil qilish uchun ishlataligancha:

«Lekin Toshkentga kelib ketishga yarapti shu oyog‘ingiz... Husanboydan eshitdim».

«Meliboy ana shunday jiddiy va murakkab o‘ylar og‘ushida esa-da, uning kayfi chog‘, «VT» ni rohatlanib tutatar va yumshoq kreslidan turgisi yo‘q edi».

«- Eshitolmadim... O‘sarboy, biz-chi, nimani yozayotgan ekanmiz?»

«Ha, Shukurboy ham kep qoptilar-ku?».

«Kelib, Sodiqboy bilan tanishmaysami»

«Ha, esa Mansurboy, kelinni so‘rang kecha ko‘p xizmat qilgan, otasiga rahmat»

«O‘zinga shukur,qobilboyga ham umr ber,bola chaqasining omon yursin»

**Jon** indikatori samimiyligi hurmat va suyish ma’nolarini ifodalash uchun qo‘llangan.

« – Quvvatjon, vaqtingiz bo‘lsa, men bilan chiqmaysizmi?»

« – Qodirjon shu yerda ishlardi»

« – Bu qanaqa gap, a, Kozimjon?»

«Kulishdik. Husanjon ketdi. Men fujerlarga yana shanpandan quydim. »

Tohir Malik hikoyalarida ham bu kabi indikatorlardan foydalanilgan. U indikatorlardan qahramonlarning o‘zaro munosabatlarini ko‘rsatish uchungina foydalangan xolos. Masalan, ijodkor jon indikatorini qo‘llaganda qahramonning yaqinlari uchun qadrli ekanligini ko‘rsatib bermoqchi bo‘ladi:

«Erkinjon, bolam, onang men bilan turmush qurib ro‘schnolik ko‘rmadi, sen uni o‘ksitma.»

«Erkinjonimni qo‘yvorishgan bo‘lsa uyda kutib o‘tirganmikan.»

Quyidagi o‘rinda esa bu indikator erkalash, suyish kabi ma’nolar ustunligi bilan ajralib turadi:

«O‘zimniki to‘rtta, Sohibjoni qo‘sib, hamisha beshta deyman, -guvoh gapira turib yigitchaga «Hali ham o‘z bolamday ko‘raman, senda ayb yo‘q», degan ma’noda qaradi.»

«Ukajonim, senga nima bo‘ldi?» «Yo‘ldoshjon, bolam, narsalaringni tezroq yig‘ishtir.»

Quyida esa hurmat ma’nosining kuchliligini ko‘rishimiz mumkin:  
«Akajon, suv bering, yonib ketyapman.» «Hovlidan Erkinning «Oyijon!» degan ovozi eshitilganday bo‘ldi.»

Boy indikatori suyish bilan birgalikda hurmat ma’nosini ham ifodalagan:

«- Oqshom siznikiga o‘tmoqchi edim, Yo‘ldoshboydan yaxshi xabar kelib qoldi.»

Mana bu o‘rinda esa boy indikatori qahramonning qahramonga subyektiv baho ma’nosini ifoda etgan:

«Ergashboy kamchiqim bo‘lasizmi yo ko‘pchiqimmisiz, bari bir bu puldan sizga berolmayman.»

N. Norqobilov ijodida ham antropoindikatorlardan unumli foydalanilgan, shu o‘rinda aytishimiz mumkinki, ijodkor qahramonning yosh jihatini ko‘rsatish uchun ham indikatorlardan foydalangan. Demak, u Tohir Malikdan farqli o‘laroq o‘zining va qahramonlarning o‘zaro munosabatlarini ifodalashda indikatorlardan foydalangan. Masalan, chol indikatori orqali qahramonning yosh xususiyati ko‘rsatilgan:

«Bu paytda Shayman chol endigina somondan qaytib, ayvonda chalop ichib o‘tirardi.»

«Lekin ularda olim yo‘q, - dedi Qudrat chol iyagini hassaga tirab.»

Voy indikatoridan foydalangan, bizning fikrimizcha bu aslida boy indikatorining buzilgan shakli. U hikoyada tengdoshlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmatni ifodalash uchun qo‘llanilgan:

«- Qanday chikin olim bo‘pti-a, Shaymanvoy.»

«Eshitdingizmi, Shaymanvoy? Bundan keyin tezlikni bas qiling.»

«Qani, O‘roqvoy, boshlang boboylarni.»

Qul indikatori esa shaxs nomini hosil qilish uchun qo‘llangan shaklda hikoyada keltirilgan:

«Eshqulning uli nima debdi deng. Shodiqul mashinasini luqshitib haydagani uchun kampirni ichagi yorilib ketibdi debdi.»

Indikatorlardan foydalanish yuqorida guvohi bo‘lganimizdek, har bir ijodkorning o‘ziga xos bir uslubini tashkil etadi. Sh. Xolmirzayev uslubida ulardan unumli foydalanishning guvohi bo‘lsak, keyingi ikki ijodkor uslubida esa ulardan ma’lum bir o‘rinlardagina foydalanilgan. Bu, albatta, har bir ijodkorning o‘ziga xosligidir.

## Xulosa

Mustaqillik davri ijodkorlari hikoyalari, umuman ijodi, leksik jihatdan boy bo‘lib, unda hozirgi paytda faol qo‘llanilgan so‘zlar bilan bir qatorda, tarixiy qatlamga xos bo‘lgan lug‘aviy birliklar ham uchraydi. Ana shunday qatlamlardan biri bu kishi ismlaridagi antropoindikatorlar. Ularda xalq ijodi, tafakkuri, ong-shuurining izlari saqlanib qolganligi ko‘rinadi.

Hikoyalardagi antroponimlarda tasvirlanayotgan davr, zamon tarixi, holati mujassamlashtirilgan, ular nafaqat nominativ, balki stilistik vazifani ham bajargan.

Antroponimlarga qo‘silib kelgan indikatorlar ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan. Ijodkorlar antroponim va antropoindikatorlarni qo‘llashda o‘ziga xos uslubni qo‘llagan.

Adiblar antroponimlar, antropoindikatorlar kabi barcha unsurlardan o‘z o‘rnida foydalana olgan va bu bilan o‘z uslubini ko‘rsata bilgan.

Shoirlarning turli davrlarda yaratgan asarlari til jihatidan bir-biridan farqlanadi. Ijtmoiy hayot taraqiyoti, undagi o‘zgarishlar, yozuvchi dunyo qarashining boyishi va o‘zgara borishi yaratgan adabiy asarlarning tiliga ta’sir etmay qolmaydi. Shuning uchun ham badiiy asar tili o‘rganilar ekan, shu asarni yozuvchining boshqa asarlari bilan qiyoslash, o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash zarur. Adib ijodiy tilini o‘rganishda shu davr tarixiy sharoitini ko‘rib chiqish bilan birga yozuvchining siyosiy-adabiy hayotdagi qaysi yo‘nalishga mansubligi, uning dunyoqarashi va zamondoshlarining hamda o‘tmish ijodkorlarining unga bo‘lgan ta’sirini, shuningdek, asarning yozilish jarayonini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmas ekan.

Ko‘rib o‘tganimizdek til juda serqirra hodisa. Shuning uchun ham tilni xalq hayoti bilan bog‘liqlikda o‘rganish lozim. Buning uchun bizga birinchi navbatda badiiy asarlar yordam beradi. Badiiy asardagi onomastik birliklar, xususan, antroponimlar ham mana shu millat, xalq hayoti va o‘tmishidan olingan, unda o‘z aksini topadi. Xuddi shuning uchun ularni o‘rganish va tadqiq qilish muhimdir. Bu orqali biz o‘z milliyligimiz, tariximizni bilish va anglashda yana bir qadam oldinga

siljiymiz. Men o‘ylaymanki, istiqlol davri ijodkorlarining o‘lmas merosi bizga ana shu bir qadam oldinga harakat uchun juda kata yordam berdi.

Badiiy asar tilidagi antroponimlar tadqiq qilish bir tomondan tilshunoslikning antroponimika sohasi uchun ahamiyatli bo‘lsa, ikkinchi tomondan tilshunoslikdagi eng dolzarb masalalaridan biri – badiiy asar tili va yozuvchi uslubi muammosiga ma’lum bir aniqliklar kiritishi bilan ahamiyatlidir. Badiiy asar tilida qo‘llaniladigan antroponimlarni o‘rganish o‘zbek tili tarixida antroponimlarning o‘rnini belgilash, bugungi kunga qadar qanday fonetik, leksik va grammatik holatlarni boshdan kechirganligi, semantik taraqqiyoti to‘g‘risida ma’lum bir xulasalar chiqarish mumkin bo‘ladi. Bu, albatta, masaladan ko‘zlangan bir maqsad bo‘lsa, ikkinchi maqsad antroponimning badiiy asar tilida qo‘llanishini o‘rganish bilan uning badiiy asar tilidagi roli belgilanadi.

Antroponimning matndagi uslubiy qiymati, bajarayotgan vazifasi asar g‘oyasini ohib berishdagi xizmatini aniqlash orqali shu asarning lingvostistik xususiyati, asar muallifining individual uslubi haqida so‘zlash mumkin bo‘ladi.

Sh. Xolmirzayevning hikoyalaridagi antoponimik shakllar, xususan, Ulton, Qo‘ysinoy, Qo‘ziboy kabi ismlar bizning o‘zligimizni yo‘qotmagan, milliylikdan chekinmagan holda tanlangan. Masalan, bizga ma’lumki, «Alpomish» dostonida ham Ultontoz ismi uchraydi, Shukur Xolmirzayevning «Omon ovchining o‘limi» hikoyasida ham shu ismni ko‘rib chiqdik. Bu adibning tarixdan ozuqa olishi emasmi? Milliy istiqlol davridagi ijodkorlarning bu kabi xususiyatlarini ochish , ko‘rib chiqish bizning maqsadlarimizdan biri edi. Men o‘ylaymanki, biz keyingi ishlarimizda bunga hali ko‘p to‘xtalamiz. Chunki til doimiy taraqqiyotdagi ijtimoiy hodisadir.

Antopoindikatorlardan foydalanish ham ijodkorning o‘ziga xos uslubidir. Ijodkor antopoindikatorlar orqali o‘zining qahramonlari haqida qandaydir ma’lumot beradi, ularga bo‘lgan munosabatiga ishora qiladi. Bundan tashqari, antopoindikatorlardan foydalanish ijodkorni kitobxonga yaqinlashtiruvchi vositalardan biridir. Shukur Xolmirzayevga qahramon tilidan so‘zlashi uchun asosiy yordamni xuddi ana shu antopoindikatorlar bergan. Adib uslubidagi

o‘zgachalikda ham, mening fikrimcha, antropoindikatorlar katta ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib istiqlol davri hikoyalari orqali antroponimlarning ham badiiy asarda semantik-stilistik vazifa bajarishi mumkinligini ko‘rib chiqdik.

Istiqlol davri hikoyalari matnidagi antroponimlarning ma’no va mazmuni, etimologiyasi hamda uslubiy xususiyatlarni yanada chuqur va keng ko‘lamda o‘rganish navbatdagi vazifalarimizdan biridir.

## **Foydalanilgan adabiyotlar.**

### **I. Siyosiy adabiyotlar.**

1. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Адолатли жамият сари. Т.: Ўзбекистон, 1998.
2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: 2008.
3. Миллий истиқлол сари: асосий тушунча ва тамойиллар. Т.: Ўзбекистон, 2000.
4. Ўзбекистон Республикасининг «Давлат тили» ҳақидаги қонуни, Т.: 1989, 21-октабр.

### **II. Ilmiy adabiyotlar.**

5. Антропонимика. М.: 1970.
6. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I-II том, Т.: 1983.
7. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М.: 1966
8. Бегимов О.Т. Жанубий Ўзбекистон топонимларининг ўзлашган қатлами. Филология фанлари номзоди диссертацияси. Т.: 1999.
9. Бегматов Э. Антропонимлар – антропоцентрик тадқиқ объекти. Ўзбек тили ва адабиёти. 2013, 3.
10. Бегматов Э. Антропонимияни тадқиқ қилишнинг социолингвистик аспекти. Ўзбек тили ва адабиёти. 2011, 4.
11. Бегматов Э. Жой номлари-маънавият кўзгуси. Т.: Маънавият, 1998.
12. Бегматов Э. Киши номларининг маъноларига доир. Ўзбек тили ва адабиёти, 1992, 2.
13. Бегматов Э. Микротопоним тушунчаси ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти. 2000, 3.
14. Бегматов Э. Номлар ва одамлар. Т.: 1966.
15. Бегматов Э. Номшуносликнинг тадқиқ йўллари. Ўзбек тили ва адабиёти. 1992, 2.
16. Бегматов Э. Ўзбек исмлари. 2-нашри, Тошкент, 2007.

17. Бегматов Э., Авлоқулов Я. Ономастик кўлам тушунчаси. Ўзбек тили ва адабиёти, 2007, 3, 17-20-б.
18. Бегматов Э., Авлоқулов Я. Ўзбек тили ономастикасининг макрокўлами таркиби. Ўзбек тили ва адабиёти, 2007, 5, 33-39-б.
19. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати, Наманган 2006, 103-бет.
20. Бегматов Э., Ҳусанов Н., Ёқубов Ш., Боқиев Б. Ўзбек тарихий номшунослигининг долзарб муаммолари. Ўзбек тили ва адабиёти. 1992, 5/6, 21-27-б.
21. Бегматов Э. Нафасов Т. Караев С. Ономастика Узбекистана Т.:1999
22. Виноградов В.В. О языке художественной литературы. М.: 1959.
23. Гурбанов А. Азербайжон ономастикаси. Баку1986.
24. Hojiyev A. Tilshunoslikning terminlarining izohli lug‘ati. T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
25. Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласи. Ўзбек тили ва адабиёти, 1978, 1, 17-20-б.
26. Жўраев Б., Бегматов Э. Атоқли отларни ўрганишга доир баъзи мулоҳазалар. Ўзбек тили ва адабиёти, 1996, 2.
27. Жўраев Б., Бегматов Э. Атоқли отларни ўрганишга доир баъзи мулоҳазалар. Ўзбек тили ва адабиёти, 1996, 3.
28. Искандарова Ш. Ономасиология муаммолари ва ўзбек тили лексикасини майдон сифатида ўрганиш. Ўзбек тили ва адабиёти. 1998, 3, 28-31-б.
29. Каримов С. Бадиий услугуб ва тилнинг ифода тасвирий воситалари. Самарқанд, 1994.
30. Каримов С. Топонимларнинг маъновий хусусиятлари. Ўзбек тилшунослиги XX асрда. Қарши, 2008.
31. Матвиев А.К. Ономатология. М.:Наука 2006.
32. Менажиев Й. ва бошкалар. Исмингизнинг маъноси нима? Т.:1964.
33. Мирзаев Э.М. Очерки топонимики. М.: 1974.
34. Нафасов Т. Ўзбек номномаси. Қарши, 1993.

35. Номшунос Олим. Мақолалар түплами. Қарши, 2008.
36. Нематов X. Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикалогияси асослари. Т.: 1996.
37. Подольская И.В. Словарь русской ономастической терминологии. М.:Наука 1988.
38. Қиличев Э. Айний асарларида антропонимларнинг стилистик хусусиятлари. Ўзбек тили ва адабиёти, 1978, 4.
39. Қиличев Э. Ўзбек тили ономастикаси. Т.:2004.
40. Рашидова М. Лақабларнинг услубий-функционал хусусияти ҳақида. Тил ва адабиёт таълими, 2009, 4. 31-33-бет.
41. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. Т.: 2004.
42. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. М.: 1973
43. Турсунов У ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: 1992.
44. Худойназаров И. Антропонимларнинг тил луғат тизимидағи ўрни. Номзодлик дисс. Т.: 1998
45. O‘zbek milliy ensiklopediyasi.Toshkent, 2005
46. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 1 -том. – Москва. Рус тили нашриёти. 1981.
47. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 2-том. – Москва. Рус тили нашриёти. 1981.
48. O‘zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug‘ati. Toshkent, 2004
49. Шоабдураҳмонов Ш. Антропонимик форматларнинг таркибий функционал ривожи ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти, 2003, 4.

### **III. Badiiy adabiyotlar.**

50. Норқобилов. Н Бўрон қўпган кун. Т.:Шарқ 2007.
51. Тоҳир Малик. “Падаркуш”. Т.: 2014.
52. Холмирзаев Ш. Сайланма 1-жилд. Т.: Шарқ 2005.
53. Холмирзаев Ш. Сайланма 2-жилд. Т.: Шарқ 2005.
54. Холмирзаев Ш. Сайланма 3-жилд. Т.: Шарқ 2005.

#### **IV. Monografiya va alohida nashrlar:**

55. Абдураҳмонов X., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. - Т.: Фан, 1981.
56. Бобониёзов А. А. Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романида тасвирий воситалар ва тил бадиияти: Филол. фанлари номзоди ... дисс. - Т., 1995.
57. Джалалова Л.О. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи: Филол.фанл.номз... диссер. Тошкент, 2009.
58. Каримов С.А. Ўзбек тилининг бадий услуби: Филол.фанлари д-ри дисс. ... автореф. - Т. 1993.
59. Келдиёрова Г.С. Ўзбек бадий нутқида қарама-қарши маъноли боғланиш: Филол.фанл.номз.диссер.автореф. - Т., 2000.
60. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили китоби. - Т.: Ўқитувчи, 1978.
61. Миртоҷиев М., Ўзбек тилида полисемия. - Т., 1975.
62. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. - Т., 1976.
63. Неъматов X., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент, 1995.
64. Решетов В.В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. - Т., 1978.
65. Сайдхонов М. Новербал воситалар ва ўзбек тилида уларнинг ифодаланиши: Филол. фанлари номзоди ... дисс. -Т., 1993.
66. Чориева З. А. Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. - Т., 2006.
67. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. - Т., 1952.
68. Шомақсудов А. Ўзбек тили стилистикаси.-Т., 1974.
69. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов X, Ўзбек тили стилистикаси. - Т., 1983.
70. Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадий текстнинг лингвистик таҳлили. - Т.: Ўқитувчи, 1990.

71. Құдратов Т. Нұтқ мәданияти ассо slari. - Т., 1993.
72. Құнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. Тошкент: Фан, 1977.
73. Құнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё.. Нұтқ мәданияти ва услубият ассо slari. - Т., 1992.

#### **V. Internet sahifalari.**

74. <http://www.Ziyonet>.
75. <http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>.
76. [Uz/ru/library/book/779/libid/20703](http://Uz/ru/library/book/779/libid/20703).
77. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
78. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz).

## MUNDARIJA

<b>Ishning umumiy tavsifi.....</b>	<b>2</b>
<b>I BOB. ONOMASTIKA – TILSHUNOSLIKNING TARMOG‘I.</b>	
I.1. Onomastika va onomastik birliklar.....	6
I.2. O‘zbek tilshunosligida antroponimiya sohasining o‘rganilishi.....	13
I.3. Badiiy asarda antoponimik birliklardan foydalanishning ahamiyati.....	19
<b>II BOB. O‘ZBEK HIKOYACHILIGIDA ANTROPONIMLARNING O‘RNI.</b>	
II.1. Tohir Malikning antroponimlardan foydalanish mahorati.....	24
II.2. Normurod Norqobilov hikoyalarida antroponimlarning qo‘llanilishi.....	30
II.3. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida antroponimik shakllar.....	37
<b>III BOB. ISTIQLOL DAVRI HIKOYALARIDA ANTROPOINDIKATOR-LARNING QO‘LLANILISHI.</b>	
III.1. Tilshunoslikda antropoindikator tushunchasi va badiiy asardagi o‘rni....	54
III.2. Mustaqillik davri hikoyanavislari ijodida antropoindikatorlar .....	58
<b>XULOSA.....</b>	<b>62</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....</b>	<b>65</b>

---